

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 90 (1689), 2026-yil 6-may, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



KORXONALARNI MOLIVAVIY SOG‘LOMLASHTIRISH, TADBIRKORLAR UCHUN QULAY SHAROITLAR YARATISHGA E‘TIBOR QARATILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 5-may kuni ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatini barqarorlashtirish hamda tadbirkorlarni o‘ylantirayotgan muammoli masalalarni hal etish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiya loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, sanoatda mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanish, avval ishga tushirilgan korxonalarining barqaror faoliyatini yuritishini ta‘minlash, ularning mahsulot ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish esa muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

Taqdimotda turli sabablarga ko‘ra to‘liq quvvatda ishlamayotgan va tushumi kamaygan korxonalar faoliyatini o‘rganish natijalari ko‘rib chiqildi. Bunday holatlar asosan to‘qimachilik, qurilish materiallari, oziq-ovqat, neft-kimyoviy, elektrotexnika va boshqa tarmoqlarda kuzatilmoqda.

Ushbu toifadagi korxonalar faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan omillar orasida aylanma mablag‘ yetishmovchiligi, kommunal infratuzilma bilan bog‘liq masalalar, loyihalarning kechikishi, uskunalarining eskirgani, xomashyo zanjiridagi uzilishlar, mahsulotga talabning pasayishi kabi muammolar ko‘rsatib o‘tiladi.

Bu muammolarni hal qilish orqali korxonalarda ishlab chiqarishni tiklash va mavjud quvvatlarini to‘liq ishga solib, qo‘shimcha 65,6 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilish imkoniyati borligi aniqlandi.

Shu bois, har bir korxonada Respublika shtabi tashkil etiladi. Shtab vakillari joylarga chiqib, ikki hafta muddatda korxonalar faoliyatiga to‘sqinlik qilayotgan masalalarni aniqlaydi va ularni joyida hal etish choralarini ko‘radi.

Faoliyatini tiklash imkoniyati mavjud korxonalariga zarur kredit mablag‘larini ajratish, aylanma mablag‘ bilan ta‘minlash, infratuzilma hamda xomashyo masalalarini hal etish bo‘yicha banklar va mas‘ul idoralar birgalikda ishlaydi.

Taqdimotda tijorat banklari balansidagi yirik mullar masalasiga ham e‘tibor qaratildi.

Bugungi kunda banklar balansida qiymati 10 milliard so‘mdan yuqori bo‘lgan 70 ta mol-mulk mavjud. Mazkur aktivlarni iqtisodiyotga qayta jalb qilish, ularga investor topish va ishlab chiqarish maydonlariga aylantirish bo‘yicha alohida mexanizmlarni joriy etish belgilandi.

Taqdimotda investitsiya dasturlari doirasida ishga tushirilgan loyihalar faoliyatini hisobga olish va ularning

natijadorligini baholash masalasiga to‘xtalib o‘tiladi. 2021-2025-yillarda amalga oshirilgan qariyb 17 mingta loyiha natijasida ishga tushgan korxonalarining ayrimlari o‘z faoliyatini soliq va statistika hisobotlarida to‘liq aks ettirmayotgani ko‘rsatib o‘tiladi. Mutasaddilarga har bir loyihani o‘rganib, ularni soliqqa tortish va statistika hisobotlarida to‘g‘ri aks ettirishni ta‘minlash topshirildi.

Ishbilarmonlik muhitiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan hamda aholi va tadbirkorlik subyektlarining e‘tirozlariga sabab bo‘layotgan ayrim masalalar hamda ularning yechimi bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi.

Xususan, tadbirkorlik subyektlarining peshlavhalari va brend belgilarini joylashtirish, umumiy ovqatlanish va savdo obyektlari uchun ayrim ma‘muriy talablar, mehnat munosabatlaridagi tartib-taomillar, naqd pulsiz to‘lovlar, soliq imtiyozlarini qo‘llash, moliyaviy jarimalar, tashqi iqtisodiy faoliyatdagi hujjatbozlik kabi masalalar muhokama qilindi.

Masalan, amaldagi tartibga ko‘ra, ayrim hollarda korxonalar nomi, faoliyat turi yoki savdo belgisi aks etgan peshlavhalar ham reklama sifatida baholanib, ular uchun alohida pasport rasmiylashtirish va to‘lovlarini amalga oshirish talab etilmoqda. Bu tadbirkorlar uchun qo‘shimcha ma‘muriy yuk bo‘lishi bilan birga savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlarining tanilishi, mijozlar oqimi va tushumiga ham ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Shu munosabat bilan tadbirkorlik subyektlarining nomi hamda faoliyat turi to‘g‘risida binoga joylashtirilgan axborotni reklama sifatida baholamaslik va buning uchun tegishli pasportlarni rasmiylashtirishni bekor qilish taklif etildi. Reklamalar va boshqa axborot belgilarini joylashtirishga doir dizayn talablarini tadbirkorlar takliflarini inobatga olgan holda bosqichma-bosqich joriy etish, yuridik shaxslarga tegishli transport vositalariga o‘z savdo belgisini joylashtirish tartibini soddalashtirish tashabbusi ilgari surildi.

Umumiy ovqatlanish korxonalariga qo‘shilgan qiymat solig‘ining bir qismini qaytarish tartibini soddalashtirish, ayrim savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko‘rsatish obyektlari uchun ekologik ekspertiza hamda kompensatsiya to‘lovlari bilan bog‘liq tartiblarni yengillashtirish taklif etildi. Shuningdek, mehnat munosabatlarida ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi ayrim tartib-taomillarni aniqlashtirish taklif qilindi.

Raqamlashtirish va naqd pulsiz to‘lovlar yo‘nalishida aholi va biznes uchun qulaylikni oshirishga qaratilgan

takliflar bildirildi. Xususan, ayrim tovar hamda xizmatlar uchun to‘lovlarni naqd pulsiz shaklda amalga oshirish amaliyoti kengayib borayotgani bois, bank infratuzilmasi, komissiyalar va iste‘molchilarga qaytariladigan keshbek tizimini takomillashtirish zarurligi qayd etildi.

Jismoniy shaxslarning o‘z bank kartalari o‘rtasidagi pul o‘tkazmalarini komissiyasiz amalga oshirish, naqdsiz to‘lovlarni aholi uchun qulay bo‘lgan shakllarini ko‘paytirish, umumiy ovqatlanish, alkogol, tamaki va yoqilg‘i sotish sohaslarida xarid cheki bo‘yicha hisoblangan keshbekni tezkor qaytarish imkoniyatini yaratish taklif etildi. Shu bilan birga, bank kartalari orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarda xavfsizlikni ta‘minlash maqsadida joriy etilgan antifrod SMS-xabarnomalar bo‘yicha xarajatlarni qayta ko‘rib chiqish, mobil ilovalardagi xabarnomalar yoki biometrik identifikatsiya kabi muqobil yechimlardan foydalanish taklif qilindi.

Soliq ma‘murchiligi va moliyaviy jarimalar yo‘nalishida soliq imtiyozlarini qo‘llashda yuzaga kelayotgan nizoli holatlarni bartaraf etish, soliq qarzdorligi bo‘yicha hisoblanayotgan penya asosiy qarz summasidan oshib ketmasligi bo‘yicha normani joriy etish, chek bermaslik holati yuzasidan xabar yuborish tizimini suiste‘mol qilish holatlarining oldini olish, QQS guvohnomasini to‘xtatish tartibini takomillashtirish ilgari surildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni soddalashtirish maqsadida import jarayonida bir-birini takrorlovchi hujjatlarni qisqartirish, tadbirkorlarga xorijda savdo uylari, filial va vakolatxonalar ochildi uchun qulayroq tartib yaratish, “O‘zbekpaxta” imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda milliy mahsulotlarni xalqaro bozorlarda keng targ‘ib qilish bo‘yicha takliflar bildirildi.

Davlatimiz rahbari tadbirkorlik uchun ortiqcha to‘siqlarni kamaytirish, nazorat va tartibga solish mexanizmlarini soddalashtirish, raqamlashtirish jarayonlarini biznesga qo‘shimcha yuk emas, qulaylik yaratadigan vositaga aylantirish zarurligini ta‘kidladi.

Mutasaddilarga mavjud sanoat quvvatlarini to‘liq ishga solish, korxonalar moliyaviy sog‘lomlashtirish, ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda tadbirkorlar uchun qulay sharoitlarni kengaytirish yuzasidan aniq topshiriqlar berildi.

O‘ZA

CHARM-POYABZAL SANOATI BO‘YICHA EKSPORT GEOGRAFIYASINI KENGAYTIRISH TAKLIFLARI KO‘RIB CHIQLDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev charm-poyabzal sanoatida amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusidagi rejalar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

So‘nggi yillarda soha korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni kengaytirish va eksportni ko‘paytirish bo‘yicha qator choralar ko‘rildi. Joriy yil birinchi choragida charm sanoatida ishlab chiqarish hajmi 962 milliard so‘mni tashkil etib, o‘shis 25 foizdan oshdi. 2030-yilga qadar charm-poyabzal sanoatida ishlab chiqarish hajmini 12 trillion so‘mga, eksportni 500 million dollarga yetkazish, 12 mingta yangi ish o‘rni yaratish maqsad qilingan.

Shu bilan birga, sohada ishga solinmagan imkoniyatlar ko‘pligi ko‘rsatib o‘tiladi. Respublikada katta hajmda teri va jun xomashyosi hosil bo‘layotgan bo‘lsa-da, ularni chuqur qayta ishlab darajasi pastligicha qolmoqda. Xususan, qo‘y va echki terisini qayta ishlab darajasi 30 foiz atrofida. Yiliga tayyorlanadigan 40 ming tonna jun xomashyosining esa atigi 6 ming tonnasi, ya‘ni 15 foizi qayta ishlanmoqda.

Taqdimotda korxonalar quvvatidan samarali foydalanish, xomashyoni chuqur qayta ishlab, tayyor mahsulot ulushini oshirish va eksport geografiasini kengaytirish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi.

Jumladan, Toshkent viloyatining Ohangaron tumani va Andijon viloyatining Shahrixon tumaniida charm-poyabzal sanoatiga ixtisoslashgan sanoat zonalarini tashkil etish rejalashtirilgan. Bu zonalarda ishlab chiqarish binolari, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, logistika, dizayn va malaka oshirish markazlari barpo etiladi. Sanoat zonalarini boshqaruvi Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi huzurida tashkil etiladigan maxsus direksiyaga yuklatiladi.

Ohangaronda terini qayta ishlab korxonalar uchun ekologik talablarga javob beradigan zamonaviy sanoat zonasi tashkil etiladi. Respublikadagi 32 ta terini qayta ishlab korxonasida suv tozalash inshootlarining 70 foizi eskirgan, yagona markazlashgan tizim mavjud emas. Shu bois, yangi zonada markazlashgan suv tozalash inshooti qurilib, kuniga 8 ming kub metr gacha tozalangan suvni texnologik jarayonlarda qayta ishlash imkoniyati yaratiladi.

Xomashyo bazasini kengaytirish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Qo‘shni davlatlardan mol

terisini markazlashgan holda import qilish, bu jarayonda tadbirkorlarga “yagona darcha” tamoyili asosida ko‘maklashish, transport xarajatlarni kompensatsiya qilish va qayta ishlovchi korxonalarini aylanma mablag‘ bilan ta‘minlash taklif etildi.

Mayda shoxli mol terilarini yig‘ish va birlamchi qayta ishlab tizimini takomillashtirish ham muhim vazifa sifatida belgilandi. Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida terini yig‘ish va birlamchi ishlov berish punktlarini tashkil etish, qayta ishlab korxonalarini rag‘batlantirish choralarini ko‘rib chiqildi.

Jun xomashyosini qayta ishlashni kengaytirish bo‘yicha Sirdaryo viloyatida yangi kompleks tashkil etish taklif qilindi. Uning quvvati 30 ming tonna junni qayta ishlashga mo‘ljallanadi. Loyiha ishga tushsa, xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarish zanjiri shakllanib, qo‘shilgan qiymat bir necha barobarga oshadi, eksport va ish o‘rinlari ko‘payadi.

Poyabzal, shu jumladan, maxsus poyabzal ishlab chiqarish hajmini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlar bilan kooperatsiya va qo‘shma loyihalarni ko‘paytirish rejalarini ko‘rib chiqildi.

Taqdimotda sun‘iy charm ishlab chiqarishni kengaytirish masalasiga ham to‘xtalib o‘tiladi. Jahon bozorida yirik brendlar ekologik talablar, narx va texnologik qulayliklar nuqtayi nazaridan sun‘iy charmdan foydalanishni kengaytirmoqda.

Mamlakatimizda mazkur yo‘nalishda 7 ta istiqbolli loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Ular natijasida 50 million pogon metr mahsulot ishlab chiqarish quvvati yaratilib, ichki talabning katta qismi qoplanadi, eksport oshadi.

Davlatimiz rahbari sohaga berilgan imtiyozlar o‘z-o‘zidan natija bermasligini, har bir korxonalar, loyiha va bozor bo‘yicha aniq hisob-kitob va amaliy harakat zarurligini ta‘kidladi.

Mutasaddilar va hududlar rahbarlariga korxonalar moliyaviy sog‘lomlashtirish, quvvatlardan to‘liq foydalanish, import o‘rni bosuvchi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, xalqaro sertifikatlar olishda tadbirkorlarga ko‘maklashish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

O‘ZA



NUFUZLI ANJUMAN YURTIMIZNING YANGI IQTISODIY VA SIYOSIY IDENTIFIKATSIYASINI NAMOYON ETDI

Qadimiy va navqiron shahar ko‘p asrlik ilmiy va madaniy nufuziga monand tarzda yana bir bor global moliyaviy hamjamiyat va mintaqaviy taraqqiyot uchun muhim muloqot maydoniga aylandi. Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 59-yillik yig‘ilishi aynan shu yerda o‘tkazilishi tasodif emas. Bu yangi O‘zbekistonning so‘nggi yillarda erishgan islohotlariga, iqtisodiy ochiqligiga, xalqaro ishonchini mustahkamlagan siyosiy-iqtisodiy mavqega nisbatan amaliy e‘tirofdir.

Davomi 2-betda



O‘zbekiston rahbarining qariyb ikki yil muqaddam Samarqand Iqlim forumida aytgan fikrlari o‘z mazmunini aslo yo‘qotmasa kerak. “Biz tabiatni ajdodlardan meros qilib emas, avlodlardan qarzga olganmiz”. Bu fikrda jiddiy ma‘no yashirin. Meros tushunchasida tanlov borki, olsang ham bo‘ladi, olmasang ham. Qarzni esa oldingmi, demak qaytarasan. Meros kechirilishi mumkin, qarz esa yo‘q.

Oradan ikki yil o‘tib yana Samarqandda, bu safar boshqa bir xalqaro tadbir — Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashi 59-yig‘ilishining ochilish marosimida Prezidentimiz ekologiya masalasiga alohida to‘xtalib, “Markaziy Osiyo yashil belbog‘i” mintaqaviy loyihasini amalga oshirish taklifini ilgari surdi. Bu — O‘zbekiston

ekologik barqarorlik masalasini shunchaki zarurat emas, balki avlodlar oldidagi qarzni qaytarish mas‘uliyati, kelajak taraqqiyotining asosi, bir so‘z bilan aytganda, hayot-mamot masalalaridan biri sifatida ko‘rayotganini anglatadi.

Davomi 3-betda



Ayniqsa, sohada yo‘lovchi tashish xo‘jaligini yanada rivojlantirish, aholiga har tomonlama qulayliklar yaratish maqsadida tizimga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Ayni maqsadda rivojlangan davlatlardan zamonaviy elektrovoz va teplovozlar xarid qilinib, yo‘lovchi vagon parki yildan yilga yangilanib bormoqda.

2023-2026-yillarda temir yo‘l transporti sohasini isloh qilish, yo‘lovchilarga qulay va zamonaviy transport tizimini yaratish maqsadida Janubiy Koreyaning “Hyundai Rotem” kompaniyasidan yuqori tezlikda harakatlanadigan 6 ta poyezd sotib olish rejalashtirildi.

Joriy yil 5-maydan ana shu poyezdlarning birinchisi — yuqori tezlikda harakatlanadigan zamonaviy “Jaloliddin Manguberdi”

yo‘lovchi poyezdi Toshkent markaziy temir yo‘l vokzalidan Xiva shahriga qatnay boshladi.

“Jaloliddin Manguberdi” poyezdlarining Toshkent va Xiva shaharlari orasida mintazam qatnashi nafaqat yurtimiz aholisi, balki xorijlik sayyohlar uchun ham poytaxtni bu qadimiy shahar bilan bog‘lashda katta qulayliklarni yaratishi shubhasiz. Zero, poyezd Toshkentdan harakatlanib Samarqand, Buxoro hamda Urganch temir yo‘l vokzallarida to‘xtab, Xiva vokzaligacha boradi.

Bugun tezyurar poyezdlar Toshkentdan Xivagacha bo‘lgan masofani 14 soatda bosib o‘tayotgan bo‘lsa, “Hyundai Rotem” poyezdlari harakatga qo‘yilishi bilan mazkur masofa vaqti deyarli ikki barobar qisqaradi. Ushbu poyezdlar Toshkentdan Xivagacha bo‘lgan 1022 kilometrli

masofani 7,5 soatda bosib o‘tadi. 250 kilometr tezlikda harakatlanadigan zamonaviy poyezdlar tarkibining uzunligi 175 metr, 7 ta vagonidan iborat, o‘rindiqlar soni 389 ta.

“Hyundai Rotem” kompaniyasining yuqori tezlikda harakatlanuvchi elektrovozlar O‘zbekiston iqlim sharoitiga to‘liq moslashtirilgan. Ya‘ni 50 daraja issiqdan 40 darajali sovuq haroratda ham ishonchli harakatlanish imkoniga ega.

Poyezd Qizilqum cho‘lining qumli hududlaridan o‘tayotganda ham vagonlar ichiga chang mutlaqo kirmaydi. Chunki poyezd qum bo‘roniga chidamli tizimlar bilan jihozlangan hamda uzog masofalarga sayohat qilish uchun mo‘ljallangan.

Yangi poyezd vagonlarida o‘rindiqlar yo‘lovchi xohishiga qarab har ikki

yo‘nalish bo‘yicha buriladi. Shuningdek, vagonlarda kuzatuv kameralari ham ishlab turadi. Maxsus ekranlarda esa harakat xaritasi va tezlik ko‘rsatkichlari aks etib boradi.

Ushbu poyezdlar qatnovini ta‘minlash uchun O‘zbekiston temiryo‘lchilari 450 kilometrli “Buxoro — Urganch — Xiva” uchastkasini to‘liq elektrlashtirdi. Shuningdek, “Navoiy — Buxoro” uchastkasida 92,12 kilometrli yangi elektrlashtirilgan ikkinchi temir yo‘l qurilishi loyihasi yakuniga yetkazildi. Moslashtirilgan ushbu yo‘nalishda yuqori tezlikda harakatlanadigan poyezdlar 250 kilometr tezlikkacha harakatlanish imkoniga ega.

Dilshod ULUG‘MURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



NUFUZLI ANJUMAN YURTIMIZNING YANGI IQTISODIY VA SIYOSIY IDENTIFIKATSIYASINI NAMOYON ETDI



Munosabat



Akrom TOSHPO'LATOV,
Parlament tadqiqotlari
instituti direktori

Boshlanishi 1-betda

Yig'ilishda 100 dan ortiq davlat delegatsiyalari, yirik xalqaro moliya institutlari rahbarlari, yetakchi kompaniyalar va banklar vakillari, 4 mingdan ziyod delegat ishtirok etgani bu forumning nufuzi, ko'lami va ahamiyatini yaqqol ko'rsatib turibdi. Mamlakatimiz mazkur yig'inga ikkinchi bor mezonlik qilayotgani esa uning mintaqaviy va global maydondagi o'ri naqadar ortib borayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Buning tabiiyki zamirida yangi iqtisodiy tafakkur, yangilangan davlat boshqaruvi va barqaror taraqqiyot modeli ko'rinishida. Davlatimiz rahbarining forum ochilishida aytgan fikrlari ham aynan shu mazmunga qurilgan. Darhaqiqat, 2016-yildan buyon iqtisodiyotni erkinlashtirish, investorlar uchun jozibador muhit yaratish, global qo'shilgan qiymat zanjirida faol ishtirok etish, hududlarda infratuzilmani tubdan yangilash va aholi turmush sharoitini yaxshilash yo'lida qat'iy va ortga qaytmas islohotlar kechmoqda. Bu yo'l qisqa emas, oson ham emas. Lekin natija bor. Iqtisodiyotda sifat o'zgarishi kuzatilmoqda, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga ko'tarilmoqda, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik esa chuqur va natijador qiyofa kasb etmoqda.

Muhim jihati, Samarqand forumida ko'tarilgan mavzular tasodifiy emas. "Taraqqiyot chorrahaları: mintaqaning o'zaro bog'liq

kelajagini ilgari surish" degan bosh mavzuning o'ziyoq bugungi dunyoda taraqqiyot endilikda yopiq milliy chegaralar doirasida emas, balki o'zaro bog'liqlik, integratsiya, energetika, transport, raqamlashtirish, investitsiya va barqarorlik to'g'risidagi umumiy fikrlar asosida shakllanishini anglatadi. Ya'ni davlatimiz rahbari yetakchiligida mamlakatimiz o'zini mintaqaviy va global jarayonlarning kuzatuvchisi bo'lmay, balki ularni shakllantiruvchi faol ishtirokchi sifatida namoyon etmoqda. Bu katta siyosiy kapital.

Prezidentimizning Samarqanddagi nutqida keltirilgan raqamlar ham quruq hisob-kitob emas, balki islohotlar samarasining lo'nda ifodasidir. So'nggi yillarda iqtisodiyotimizga 150 milliard dollar xorijiy investitsiya kirib kelgani, minglab zamonaviy korxonalar ishga tushirilgani, birgina energetika sohasida 35 milliard dollarlik sarmoya hisobiga elektr ishlab chiqarish hajmi 1,5 barobar ortib, 87 milliard kilovatt-soatga yetkazilgani iqtisodiy siljishlar qanchalik keng ko'lami kasb etganini ko'rsatadi. Tovar va xizmatlar eksporti uch karra o'sdi, iqtisodiyot hajmi esa 50 milliard dollardan 147 milliard dollarga yetdi. Bu yaxlit siyosiy islohotlar tizimi, to'g'ri tanlangan ustuvor yo'nalishlar va izchil davlat siyosati natijasidir.

Mazkur raqamlar ortida nafaqat iqtisodiy o'sish, balki jamiyatning ruhiy o'zgarishi ham turganini ko'ramiz. Chunki har bir sarmoya, har bir yangi zavod faqat aktiv yoki quvvat emas, balki odamlar hayotidagi real o'zgarishdir. Ish o'rinlari yaratiladi, mahalliy xizmatlar rivojlanadi, hududlar o'rtasidagi tafovut kamayadi, aholining davlatga ishonchi mustahkamlanadi. Shu nuqtayi nazardan, iqtisodiy islohotlar mazmunini faqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan emas, balki inson hayotining sifatida ham ko'rish kerak. Islohotlarda asosiy e'tibor har bir oila va har bir insonning kundalik hayotini yaxshilashga qaratilgan. Kambag'allik darajasini 35 foizdan 5,8 foizga tushirish haqidagi ma'lumot aynan shu insonparvar yo'nalishning amaldagi ifodasidir.

Bu yerda islohotlarning yana bir muhim o'ziga xosligi namoyon bo'ladi. Ular faqat bozorni erkinlashtirish uchun emas, balki jamiyatning ijtimoiy muvozanatini saqlash uchun ham xizmat qilmoqda. Bir tomondan, xususiy sektorga keng yo'l ochilmoqda. Ikkinchi tomondan, kambag'allikni qisqartirish, ta'lim, sog'liqni saqlash, suv xo'jaligi, ekologik barqarorlik, turar joy qurilishi kabi



Forumdagi muloqotlardan kelib chiqadigan yana bir muhim xulosa yurtimizning investitsiya siyosati diversifikatsiya qilinayotganidir. Ya'ni mamlakat bir yoki ikki davlatga bog'lanib qolmay, Janubiy Koreya, Yaponiya, Saudiya Arabistoni, AQSH, Xitoy, Yevropa davlatlari bilan parallel hamkorlikni rivojlantirmoqda.

sohalarga katta e'tibor berilmoqda.

2020-yildan buyon O'zbekiston suveren kredit reytinglarida o'z o'rnini barqaror oshirib kelayotgani, iqtisodiy erkinlik indeksida mamlakatimiz 14 pog'ona yuqorilab, ilk bor "iqtisodiyoti mo'tadil erkin" davlatlar qatoriga kirgani biz erishgan natijalarning institutsional ifodasidir. Tashqi dunyo yurtimizdagi o'zgarishlarni huquqiy-institutsional va moliyaviy baholash mezonlari orqali ham tasdiqlayapti. Bu esa mamlakatdagi islohotlarning ishonchligi, barqarorligi va ortga qaytmaglini ko'rsatadi.

Samarqand anjumanining muhim jihati, u O'zbekistonning Osiyo taraqqiyot banki bilan munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqdi. O'tgan 30 yil davomida OTB mamlakatimiz uchun haqiqiy strategik sherikka aylanganini qayd etildi. Qariyb 16 milliard dollarlik loyihalar portfeli bu hamkorlik ko'lamini ko'rsatib turibdi. Temir va avtomobil yo'llari, energetika, ijtimoiy infratuzilma, suv ta'minoti va kanalizatsiya, qishloq xo'jaligi, xususiy sektor kabi yo'nalishlardagi loyihalar faqat texnikaviy modernizatsiya emas, balki mintaqaviy rivojlanishning yangi tirgaklaridir.

Prezidentimizning forumdagi nutqida O'zbekistonning nafaqat o'z taraqqiyoti, balki mintaqaviy barqarorlik va hamkorlik uchun ham tashabbuskor davlat ekanini yaqqol ko'rindi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo doirasidagi yirik infratuzilmaviy loyihalarga alohida e'tibor

qaratildi. Bu yerda bank mablag'larni safarbar etishda yetakchi o'rin tutishi mumkin. Markaziy Osiyo endi faqat geografik hudud bo'lmay, balki bir-birini to'ldiruvchi iqtisodiy makonga aylanishi kerak. Transport, energetika, savdo, suv resurslari, raqamli infratuzilma va ekologiya sohasidagi hamkorlik shunga xizmat qiladi. Samarqandda aytilayotgan takliflar shu ma'noda mintaqaning umumiy kelajagiga qaratilgan.

Bugungi zamonaviy dunyoning asosiy kaliti raqamlashtirish va sun'iy intellekt bilan uzviy bog'liq. Mamlakatimiz yetakchisi bu mavzuda juda aniq va kelajakni ko'ra bilishga asoslangan takliflar bildirdi. Jahon savdo tashkiloti prognoziga ko'ra, 2040-yilga borib, sun'iy intellekt hisobiga xalqaro savdo aylanmasi qo'shimcha 40 foiz oshishi mumkin. Bunday sharoitda raqamli infratuzilmaga ega bo'lgan, kadrlar tayyorlash tizimini vaqtida yo'lga qo'ygan, texnologiyani faqat iste'mol qilmasdan, uning yaratuvchisiga aylangan mamlakatlarga raqobatbardosh bo'ladi. Yurtimizda sun'iy intellekt xabini tashkil qilish boshlangani, iqtisodiyot tarmoqlarida 200 dan ortiq SI loyihasi ushbu ishlanyotgani, hududlarda data markazlar, superkompyuterlar va laboratoriyalar tashkil etilayotgani bejiz emas. Bu kelajak iqtisodiyotiga kirish uchun zarur bazaviy qadamlardir.

OTB shafeligida rivojlanayotgan mamlakatlarda sun'iy intellekt ko'lamini oshirish

bo'yicha alohida dastur ishlab chiqish taklifi juda ahamiyatli. Bu yerda faqat milliy manfaatdan tashqari, balki mintaqaviy va global mas'uliyat ham mujassam. Shuning uchun O'zbekistonning bu taklifi kambag'allikni kamaytirish, inson kapitali va ta'lim sifatini oshirish bilan birga rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi raqamli tafovutni qisqartirishga qaratilgan amaliy qadam sifatida baholanishi mumkin.

Yangi iqtisodiy paradigmda energiya strategik ustunlikdir. Samarqand anjumanida muhokama qilingan mavzular orasida "yashil" energetikaga alohida urg'u berilishi bejiz emas. Chunki XXI asr iqtisodiyotida raqobat faqat mehnat yoki kapital bilan emas, balki toza, barqaror va arzon energiyaga kirish imkoniyati bilan ham belgilanadi. Ma'ruzada qayd etilganidek, O'zbekiston so'nggi yillarda 5,6 ming megavatt quvvatga ega shamol va quyosh elektr stansiyalarini ishga tushirib, elektr energiyasi ishlab chiqarishda "yashil" energiya ulushini 30 foizga yetkazdi. 2030-yilga borib, bu ko'rsatkichni 54 foizga chiqarish rejasini esa mamlakatning strategik yo'nalishi qanchalik aniq belgilab olinganini ko'rsatadi.

Samarqand forumida ko'tarilgan yana bir strategik yo'nalish transport va logistika tizimlarining o'zaro bog'liqligini kuchaytirish masalasidir. Bugungi global iqtisodiyotda mahsulot ishlab chiqarishdan ko'ra, uni tez va arzon yetkazib berish muhimroq bo'lib bormoqda. Prezidentimiz nutqida jahondagi geosiyosiy o'zgarishlar natijasida logistika koridorlari o'zgarib, Markaziy Osiyo davlatlari uchun yuk tashish xarajatlari 30 foizgacha oshgani qayd etildi. Bu oddiy statistika emas, balki mintaqaviy iqtisodiyot uchun jiddiy xavf. Chunki logistika xarajatlari yuqori bo'lgan iqtisodiyot raqobatda yutqazadi.

Shu nuqtayi nazardan, "Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston" temir yo'li loyihasi strategik ahamiyat kasb etadi. Bu loyiha faqat yangi transport yo'li emas, balki butun mintaqaviy uchun yangi iqtisodiy arteriyadir. U amalga oshsa, yuk yetkazib berish muddati 10 kungacha qisqaradi, yillik tashish hajmi 15 million tonnaga yetadi. Bu esa O'zbekistonni tranzit davlatdan logistika xabi darajasiga olib chiqishi mumkin.

Ilgari surilgan "Raqamli bojxona va logistika alyansi" tashabbusi aynan shu muammolarni hal qilishga qaratilgan. Chunki muammo faqat yo'l qishida emas, hujjat aylantirish, chegaradan o'tish, standartlarni uyg'unlashtirish kabi "ko'rinmas to'siqlar" ham katta vaqt va xarajat talab qiladi. Agar bu jarayonlar raqamlashtirilsa, logistika samaradorligi bir necha barobar oshishi mumkin.

Ekologiya va iqlim o'zgarishi masalasi Samarqand anjumanida markaziy o'rin egalladi. Markaziy Osiyo uchun bu masala nazariy emas, balki hayotiy ahamiyatga ega. Qurg'oqchilik,

suv tanqisligi, cho'llanish iqtisodiy o'sishni sekinlashtiruvchi omillardir. "Yashil makon" loyihasi doirasida har yili 200 million tup ko'chat ekilishi, Orol dengizi qurigan tubida 2 million gektar o'rmonzor barpo etilgani bu muammolarga tizimli yondashuv borligini ko'rsatadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan "Markaziy Osiyo yashil belbog'i" tashabbusi esa mintaqaviy darajadagi yangi ekologik platforma bo'lishi mumkin. Bu yerda asosiy savdo koordinatsiya va moliyalashtirish. Chunki ekologiya loyihalari ko'pincha iqtisodiy qaytishi sekin bo'lgan sohalarga kiradi. Shuning uchun OTB kabi institutlar ishtiroki hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Samarqand anjumanida turizm sohasiga oid takliflar ham diqqatga sazovor. So'nggi o'n yilda yurtimizga keluvchi xorijlik sayohatlar soni 6 barobar oshib, 12 millionga yetgani mamlakatimizning ochiqligi va jozibadorligini ko'rsatadi. "Markaziy Osiyo turizm halqasi" tashabbusi bu sohani yanada keng qamrovli darajaga olib chiqishga qaratilgan. Bu yerda mantiq o'ddiy: sayohat bir mamlakat emas, butun mintaqani ko'rishni xohlaydi. Agar viza, transport va servis integratsiya qilinsa, butun Markaziy Osiyo yagona turistik makonga aylanishi mumkin.

Samarqanddagi muloqotlar bir narsani ochiq ko'rsatdi: mamlakatimiz tashqi iqtisodiy siyosatda endi faqat "shirik topish" emas, balki "shiriklik arxitekturasini qurish" bosqichiga o'tgan. Bu farq prinsiplar. Chunki avvalgi modelda davlat tashqi sarmoyani jalb qilishga urinib, ko'pincha shartlarni investor belgilagan. Yangi modelda esa aniq ustuvor yo'nalishlar, sohibiy strategiyalar va institutsional islohotlar asosida hamkorlik shakllantirilmoqda. Samarqand forumi doirasida Koreya Respublikasi, Yaponiya va Saudiya Arabistoni bilan o'tkazilgan uchrashuvlar aynan shu yangi yondashuvning amaliy ko'rinishidir.

Forumdagi muloqotlardan kelib chiqadigan yana bir muhim xulosa yurtimizning investitsiya siyosati diversifikatsiya qilinayotganidir. Ya'ni mamlakat bir yoki ikki davlatga bog'lanib qolmay, Janubiy Koreya, Yaponiya, Saudiya Arabistoni, AQSH, Xitoy, Yevropa davlatlari bilan parallel hamkorlikni rivojlantirmoqda.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan Milliy investitsiya jamg'armasi tashabbusi ham aynan shu mantiqqa to'g'ri keladi. 13 ta yirik korxonaga aktivlarini o'z ichiga olgan ushbu jamg'armaning 30 foiz ulushini xalqaro fond bozoriga chiqarish rejasini ichki iqtisodiyotni global moliya tizimiga integratsiya qilish yo'lidagi muhim qadamdir. Bu orqali davlat aktivlari samaradorligi oshishi, korporativ boshqaruv standartlari yaxshilanishi va investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratilishi mumkin.

Samarqand anjumanida O'zbekistonning yangi iqtisodiy va siyosiy identifikatsiyasini namoyon etgan voqea bo'ldi. Mamlakat o'zini faqat islohot o'tkazayotgan davlat sifatida emas, balki mintaqaviy va global taraqqiyot kun tartibini shakllantiruvchi subyekt sifatida namoyon etmoqda. Bu yo'l oson emas. Lekin eng muhimi — yo'l tanlangan. Endi asosiy vazifa shu yo'l bilan ortga qaytmastik.

OSIYO TARAQQIYOT BANKINING SAMARQAND FORUMI O'ZBEKISTONDAGI FENOMENAL O'ZGARISHLARNING AMALIY IFODASI

Xorijiy ekspertlar va Samarqandda o'tayotgan Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 59-yillik yig'ilishi ishtirokchilari Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lami o'zgarishlarga alohida e'tibor qaratmoqda.

Professor Karlos Uriarte SANCHES, Umum-Yevropa Ittifoqining Ispaniyadagi prezidenti:



— Ishonchim komilki, bunday nufuzli forum uchun aynan yangi O'zbekistonning tanlanishi Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan keng ko'lami o'zgarishlarning real natijasidir.

O'zbekiston rahbarining iqtisodiyotni chuqur transformatsiya qilish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan izchil va pragmatik siyosati bugungi yutuqlarining asosiy omili bo'ldi. Nisbatan qisqa davrda O'zbekiston ta'sirchan natijalarni ko'rsatdi — iqtisodiyot hajmi qariyb uch barabarga, ya'ni 50 milliard dollardan 147 milliard dollargacha o'sdi. 150 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiyalar jalb etildi, eksport hajmi uch barabarga ko'paydi.

Ayniqsa, o'sish nafaqat miqdoriy, balki sifat xarakteriga ham ega ekanini diqqatga sazovordir. Global beqarorlik sharoitida iqtisodiyot yuqori o'sish sur'atlarini saqlab qolmoqda. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, o'sish 8,7 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, ijtimoiy ko'rsatkichlar sezilarli darajada yaxshilandi. Kambag'allik darajasi

qariyb 35 foizdan 5,8 foizga tushdi, millionlab fuqarolarning daromadlari esa sezilarli darajada oshdi.

Asosiy tarmoqlarda jadal modernizatsiya ishlari olib borilayotgani alohida e'tiborga loyiq. Energetika sohasida 35 milliard dollar investitsiya hisobiga elektr energiyasi ishlab chiqarish 1,5 barabarga oshib, 87 milliard kilovatt-soatga yetdi, "yashil" energetika sektori faol rivojlanmoqda. Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarga asoslangan yangi iqtisodiyot, jumladan, sun'iy intellekt sohasidagi keng ko'lami dasturlar shakllantirilmoqda.

Bu o'zgarishlarning barchasi bugungi kunda nafaqat moliyaviy institut, balki O'zbekistonning to'laonli strategik hamkori bo'lgan Osiyo taraqqiyot banki bilan yaqin hamkorlikda amalga oshirilayotgani muhim deb hisoblayman. Qo'shma loyihalar allaqachon keng ko'lamga ega bo'lib, infratuzilma, xususiy sektor va inson kapitalining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shmoqda.

Ishonchim komilki, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan Samarqand forumi doirasida ilgari surilayotgan tashabbuslar — raqamlashtirish, "yashil" energetika, transport o'zaro bog'liqligi va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish sohasida uzoqni ko'zlagan yondashuvni namoyish etadi va nafaqat O'zbekistonning, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining uzoq muddatli o'sishi uchun asos yaratadi.

Umuman olganda, Prezidenting rahbarligida olib borilayotgan siyosat bugunning o'zidayoq aniq natijalarni bermoqda. O'zbekistonning xalqaro maydondagi mavqei mustahkamlamoqda va 2030-yilgacha bo'lgan ulkan rivojlanish maqsadlariga erishish uchun mustahkam poydevor yaratmoqda.

Oliyev KUENI, Yevropa investitsiya bankining Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakolatxonasi rahbari: — Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashi yig'ilishi O'zbekistonda o'tkazilayotgani mamlakatimiz nimalarga qodir ekanining yorqin namunasidir. Bu yerda hukumatlar, davlat va xususiy sektor, xalqaro moliya institutlari vakillari jam bo'ldi.



Men Yevropa Ittifoqining moliyaviy instituti — Yevropa Investitsiya banki vakili bo'laman. Biz har yili OTBning yillik yig'ilishida ishtirok etamiz, chunki bank bilan butun Osiyo bo'yicha yaqin hamkorlik qilib, mintaqalar va qit'alar bog'lashga qaratilgan loyihalarni birgalikda moliyalashtiramiz.

Biz Surxondaryo viloyatidagi "Sherobod" quyosh loyihasini moliyalashtirgan edik. Bu 450 megavattli yirik elektr stansiyasi bo'lib, O'zbekistonda toza energiya bilan ta'minlaydi. Kelgusida transport loyihalarini — yo'l va temir yo'llar qurilishini, shuningdek, butun Markaziy Osiyo bo'yicha energiya tarmoqlarini rivojlantirishni birgalikda moliyalashtirish imkoniyatini ko'rib chiqmoqdamiz. Bundan tashqari, raqamli aloqa muhim yo'nalish hisoblanadi. Bunda sun'iy yo'lldosh loyihalari va keng polosali internetni, shu jumladan, optik tolali tarmoqlarni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi.

So'nggi o'n yil ichida O'zbekistonda haqiqatan olamshumul o'zgarishlar yuz berdi. Iqtisodiyot sezilarli darajada o'sdi va xususiy sektorning roli kuchaydi. Bunga to'g'ri tanlangan islohotlar tufayli erishildi. Mamlakatda qonunchilik investorlar uchun yanada jozibador qilindi va bu sezilarli natijalar berdi. Dastlab xorijiy investitsiyalar energetika sohasiga, keyin esa iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga faol kirib keldi.

Bugungi kunda xorijiy kompaniyalar energetika, suv ta'minoti, transport, sog'liqni

saqlash va boshqa sohalarga sarmoya kiritmoqda. Bu iqtisodiy rivojlanish va ish o'rinlarini yaratish uchun juda muhim, ayniqsa, O'zbekistonda yaxshi ma'lumotga ega bo'lgan ko'plab yosh va iqtidorli insonlar borligini hisobga olsak. Bu keyingi avlod uchun imkoniyat yaratadi. Mamlakat ta'lim va kommunikatsiya sohaslarida ham faol rivojlanmoqda — ingliz tilini bilish xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik qilish va biznes yuritishda qo'l keladi.

Ayni paytda Yevropa investitsiya banki mintaqaviy ofisini Toshkentda ochmoqda. Rasmiy ochilish marosimi shu yil iyun oyida Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Professor Nina LINDE, Latviya fanlar akademiyasi Iqtisodiyot instituti direktori: — Bunday nufuzli tadbirning O'zbekistonda o'tkazilishi mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzi ortib borayotgani, mintaqaviy va hududlararo hamkorlikni rivojlantirishdagi faol roldan dalolat beradi. Ochilish marosimida



O'zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoyev va OTB prezidenti Masato Kandanning ishtirok etishi forumga alohida ahamiyat bag'ishlaydi. Kuni kecha O'zbekiston va Osiyo taraqqiyot banki o'rtasidagi sheriklikning uzoq muddatli va strategik xususiyatini aks ettiruvchi 2026-2030-yillarga mo'ljallangan yangilangan

Hamkorlik dasturi bo'yicha o'zaro anglashuv memorandumini imzolanganini alohida e'tiborni tortmoqda.

Ushbu dasturning amalga oshirilishi investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilmani rivojlantirish, tarkibiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotga innovatsion yondashuvlarni joriy etishga xizmat qiladi. Bu, shuningdek, mamlakatning barqaror o'sishi va raqobatbardoshligini oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Yig'ilish doirasida ikki tomonlama uchrashuvlar va tematik seminarlar o'tkazish iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlari, jumladan, raqamlashtirish, "yashil" iqtisodiyot va mintaqaviy integratsiya bo'yicha muloqotni chuqurlashtirish imkonini beradi.

Bunday maydonlar tajriba almashish va kelishilgan yechimlarni ishlab chiqish uchun qulay muhit yaratadi. O'zbekiston xalqaro hamkorlikka ochiqligini va yirik iqtisodiy tashabbuslarni amalga oshirishda muhim sherik bo'lishga tayyorligini namoyish etmoqda. Umuman olganda, OTB Boshqaruvchilar kengashining navbatdagi yillik yig'ilishini Samarqandda o'tkazish iqtisodiy diplomatiyani mustahkamlash yo'lidagi muhim qadam bo'lib, Markaziy Osiyoda va undan tashqari o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Hiroki KASAHARA, Osiyo taraqqiyot bankining Iqlim o'zgarishi va barqaror rivojlanish departamenti yetakchi mutaxassis:

— O'zbekiston Osiyo taraqqiyot bankining yillik yig'ilishiga ikkinchi bor mezonlik qilmoqda va bu butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi. O'tgan safar tadbir poytaxt Toshkentda o'tkazilgan bo'lsa, bu safar Samarqand diqqat markazida.

Anjumaning u yerda o'tkazilishi ishtirokchilarga nafaqat mamlakatning moliyaviy va ma'muriy markazi, balki uning madaniy merosi, milliy qadriyatlarini hamda hududiy rivojlanish salohiyatini bilan ham yaqindan tanishish imkonini beradi. Samarqand O'zbekistonning tarixiy merosini ham, uning



zamonaviy taraqqiyotini ham yaqqol namoyon etib, mamlakat istiqbollari haqida yanada yaxlit tasavvur shakllanishiga xizmat qiladi.

OTB va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik qariyb 35 yillik tarixga ega. Bu davrda infratuzilmani rivojlantirishga, xususan, yo'l qurilishi, energetika, elektr tarmoqlari, suv xo'jaligi va boshqa muhim yo'nalishlarga katta e'tibor qaratildi. Biroq nafaqat infratuzilmani yaratish, balki uning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash ham muhim jihattir. Tegishli boshqaruv va xizmat ko'rsatish bo'lmasa, bunday loyihalar o'z qiymatini yo'qotishi mumkin. Shu bois, OTB ushbu obyektning samarali boshqaruvi va saqlanishini ta'minlash maqsadida investitsiyalar bilan bir qatorda mutaxassislar malakasini oshirish hamda davlat va mahalliy institutlarni mustahkamlash dasturlarini ham amalga oshirmoqda.

Yillik yig'ilishning o'tkazilishi OTBning barcha ishtirokchilari va hamkorlari uchun O'zbekistondagi bugungi vaziyatni yaxshiroq anglashga xizmat qiladigan muhim maydondir. Bu hamkorlikning yangi yondashuvini ishlab chiqish va kelgusi loyihalarni birgalikda rejalashtirish uchun zamin yaratadi. Natijada OTB va O'zbekiston o'rtasidagi o'zaro hamkorlik kelajakda qanday rivojlanishi kerakligi haqida yanada aniqroq tasavvur shakllanadi.



Dolzarb mavzu

MARKAZIY OSIYO "YASHIL BELBOG'I" ekologik barqarorlik asosi



O'ktamjon TILAVOV, professor

Boshlanishi 1-betda

2026-yil aprel oyida Ostonada ikkita muhim tadbir chaqirildi. Birinchisi "Barqaror kelajak uchun umumiy nioh" shiori ostidagi Mintaqaviy ekologik sammit bo'lsa, ikkinchisi Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi (OQXJ) ta'ischi davlatlari rahbarlari majlisi. Ikkala tadbirning ketma-ket bir vaqtda o'tkazilishi tasodif emas. Ular bir-birini mantiqan to'ldiradi. Birinchisi umumiy ekologik siyosat haqida, ikkinchisi esa o'sha umumiy muammoning eng daril nuqtasiga, ya'ni Orol fojiasiga qaratilgan.

Reytinglar ortidagi reallik

Bugun dunyoda harorat oshayotgani haqida katta minbarlarda bong urilmoqda. Ammo bu jarayon Markaziy Osiyoda umumiy ko'rsatkichlardan ikki barobar tez kechayotgani achenarli holat.

Markaziy Osiyoning tog' muzliklari mintaq uchun biologik "suv banki" vazifasini o'taydi. Qor erishi yoz boshida daryolarni to'ldiradi, daryolar sug'orish kanallarini, kanallar esa dehqonchilikni tirik tutadi. Ushbu zanjirning har bir bo'g'ida Markaziy Osiyoning iqtisodiy va ijtimoiy hayoti osig'liq turibdi, desak aslo mubolag'a emas. Gidrologlar "muzlik suvi bankini tugatish" deb ataydigan holat bor, ya'ni muzliklar eriydi, keyin quriydi, suv manbai batamom yo'qoladi. Bu senariy endi nazariy xavf emas. Sirdaryo va Amudaryoning yuqori oqimi hududlarida bu jarayon allaqachon boshlangan va muzliklarning uchdan bir qismi yo'qolgan. Farg'ona vodiysida dehqonlar suv navbatini kutib, ertadan kechgacha qanal boshida o'tiradi. Qashqadaryoda ayrim yillari sug'orish mavsumi qiyin kechadi.

Atmosfera sifati masalasi ham keskin. Markaziy Osiyodagi Toshkent, Olmota, Bishkek havo sifati pastligi indeksi bo'yicha dunyo shaharlari reytingiga tez-tez kirib qoladi. Bu indeks kimyoviy laboratoriya o'lchovlari, tibbiy statistika va transport tahlili asosida tuziladi. Nafas tizimi kasalliklari, bolalarda asma tarqalishi, ishchi yoshidagi aholida nafas yo'llari shikastlanishi poliklinika statistikasida yashiringan.

Chang va tuz bo'ronlarini alohida aytish zarur. Orol dengizi qurishi bilan uning tubida yillar davomida yig'ilgan kimyoviy o'g'itlar va pestitsidlarni singdirgan zaharli tuzlar atmosferaga ko'tarildi. Har yili millionlab tonnagacha shunday zaharli chang havoga ko'tariladi va shamol uni yuzlab kilometrta tarqatadi.

Mintaqaviy muammolar kesishuvi

Iqlim o'zgarishi mantig'i bilan qaraganda, "falon mamlakat ko'proq zarar ko'rdi" yoki "falon mamlakat ko'proq aybdor" deb aytish osondir, ammo Markaziy Osiyoda reallik boshqacha. Bu yerda besh mamlakatning ekologik taqdiri bittagina gidrologik tizim, ya'ni Amudaryo va Sirdaryo havzasi orqali chambarchas bog'langan.

Tojikiston va Qirg'iziston tog' muzliklari eriydigan boshlang'ich nuqtani nazorat qiladi, ammo suv pastga oqadi. O'zbekiston va Turkmaniston suvning yirik iste'molchilari, ammo suv manbalari larlari ixtiyorida emas. Qozog'iston geosiyosiy va iqlim jihatidan keng hudud, uning cho'llanayotgan dashtlari va sanoat chiqindilari masalasi bor. Mana shu besh mamlakatni yaxlit tizim sifatida ish tutmasa nima bo'ladi? Bir davlat irrigatsiya samaradorligini oshirsa-yu, ikkinchisi o'z kanallarini kengaytirishni boshlasa, bir mamlakat sanoatni tozalasa, qo'shnisi issiqxona gazlari normasini e'tibordan qoldirsa, umumiy natija nolg teng bo'lmaydimi? Iqtisodchilar bunday vaziyatni "mahalliy optimallashtirishdan umumiy zararga" deb ataydi. Ya'ni har bir davlat o'zi uchun to'g'ri qaror qabul qiladi. Ammo umumiy natijasi hammaga zarar beradi. Markaziy Osiyoda aynan shu mantiq ishga tushmasligining asosiy yagona yechimi umumiy standart, umumiy mexanizm va umumiy javobgarlikdir.

O'zbekiston rahbari tomonidan Ostonada taqdim etilgan tashabbuslar aynan shu nuqtaga yo'naltirilgan.

"Markaziy Osiyoning toza havosi" konsorsiumi Ostonada "Markaziy Osiyoning toza havosi" davlatlararo konsorsiumini tuzish taklif qilindi. Konsorsium havoni ifloslash manbalarini aniqlash, mintaqaviy yagona monitoring tizimini yo'lga qo'yish, sanoat obyektlarini modernizatsiyalashda "yashil" moliyalashtirishni birgalikda boshqarish uchun vazifa oladi. Bu mintaq mamlakatlari havo sifati masalasida yakka-yakka ish tutish o'rni, yagona platformada va yagona standart asosida ishlashining birinchi marta rasmiy tilga olinishi bo'ldi.

Toshkent, Olmota, Bishkekda qish kunlari "havo ifloslanishi yuqori" bo'lishi normal holga aylanib ulgurd. Atrof-muhit mutaxassislari bu ahvoning uch asosiy sababini aytadi. Ya'ni isitish mavsumida ko'mir va maishiy yoqilg'i yoqish, o'tgan asming 90-yillar standartidagi eskirgan transport parki va ishlab chiqarish korxonalarida tozalash infratuzilmasi zaifligi.

Muammoning o'ziga xos bir jihati shundaki, havo ifloslanishining qiyosiy tahlili uchun ma'lumot to'plash va o'lchashning mintaqaviy tizimi mavjud emas. Qozog'istonda yirik shaharlarda avtomatik stansiyalar bor, O'zbekistonda tizim kengayaypti, lekin Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmanistonda o'lchov stansiyalari kamchil. Natijada ba'zi hududlardagi havo ifloslanishi rayosat bayonotlarda muammo o'laroq tan olinsada, aniq raqamlar yig'ilmaydi. Qiyoslashga



Markaziy Osiyoda havo ifloslanishining katta qismi transport tufayli vujudga keladi. Shaharda yuradigan avtobuslar, yuk mashinalari, eskirgan xususiy avtomobillar ko'pincha "Euro-1" yoki "Euro-2" standartidan ancha past. Ba'zi mamlakatlar 2030-yilgacha "Euro-4" standartiga o'tishni rejalashtirgan bo'lsa, boshqalari hali aniq jadval ham qilmagan. Konsorsium umumiy mintaqaviy standart belgilashi, masalan, 2028-yildan faqat "Euro-4" va undan yuqori standartli transport vositalariga ruxsat berish, 2032-yilga borib, umumiy parkda qiyi standartli transportni keklash va ushbu jadvalga rioya etishni birga nazorat qilsa, natija sezilarli bo'lardi.

ishlab chiqarishga real iqtisodiy rag'bat orqali undash va mahsulotlarning xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish.

Masalan, Yevropa Ittifoqi 2026-yildan boshlab uglerod sarfi chegarasi (CBAM) mexanizmini ishga tushirdi. Agar YEIga eksport qilinayotgan metall, sement, alyuminiy, o'g'it, elektr energiyasi va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilayotganda belgilangan chegaradan ortiq uglerod gazlari chiqarilgan bo'lsa, importyor normadagi farqni soliq sifatida to'laydi. Oddiy qilib aytganda, Markaziy Osiyo korxonasi "iflos" texnologiya bilan mahsulot ishlab chiqarib Yevropaga sotgandagi narxiga qo'shimcha CBAM solig'i qo'shiladi. Bu mahsulot narxini oshirishi mumkin va natijada Yevropa xaridori boshqa "tozarog" ishlab chiqaruvchini tanlaydi. Mintaqa mamlakatlari CBAMni hozirdan jiddiy qabul qilmasa, 5-10 yil ichida YI bilan savdoda bozor ulushi yo'qotilishi mumkin.

Ikkinchidan, ichki bozorni unutib bo'lmaydi. Agar mintaq ichida "yashil" mahsulotga imtiyoz berilmasa, ishlab chiqaruvchi nima uchun yangi texnologiyaga investitsiya qilsin? U bozorda hech qanday ustunlik olmaydi. Ammo agar "yashil" sertifikatli mahsulot mintaq ichida imtiyozli boj stavkasidan o'tsa, davlat xaridlarida ustunlik olsa yoki ijtimoiy reklama orqali nufuzi oshsa, biznes o'zini "yashil" tomonga uradi. Bunga davlat majburiy orqali erishish nihoyatda qiyin. Chunki nazorat xarajatlari yuqori, ijro kafolatlanmagan. Bozor rag'batlari esa ijro mexanizmini biznesning o'ziga yuklaydi va davlat faqat o'yin qoidasini belgilaydi.

Uchinchidan, bugun "yashil" texnologiyalar, quyosh panellari, shamol turbinalari, elektromobil batareyalari ishlab chiqarishda hech bir davlat Xitoy bilan raqobatlasha olmaydi. Markaziy Osiyo Xitoyga yaqin joylashgan ekan, u yerdan keladigan ushbu texnologiyalar uchun umumiy tender, import kanali, narx muzokarasini imkoniy mavjud. Bu texnologiyalarni mamlakatlar alohida-alohida xarid qilsa, kichik mijoz bo'ladi. Birlashib xarid qilinsa, mamlakat emas, bozor maqomiga chiqadi va katta narx chegimalariga yo'l ochiladi.

Hozir mintaq mamlakatlarida "ekologik toza mahsulot" tushunchasi turlicha talqin etiladi. Qozog'istonda berilgan sertifikat O'zbekistonda tan olinmaydi, O'zbekiston tasdiqlagan Qirg'izistonda ishlamaydi. Yagona mintaqaviy sertifikat esa arzonroq va tijorat jihatidan ancha jozibali emasmi? Bu tizim ISO 14001 va Yevropa muvobilliga muvofiq tuzilsa, xalqaro xaridorlar uchun ham tushunarli bo'ladi va Yevropa bozoriga kirish imkonini oshirish uchun ishonchli asos vazifasini o'taydi.

Kichik ishlab chiqaruvchi uchun eng katta muammolardan biri ma'lumot topishdir. U qaysi texnologiyalar mavjudligini, narxini, kim subsidiya berishini, qay tartibda soliq imtiyozli olishni ko'pincha bilmaydi. Mamlakatlar o'rtasida umumiy onlayn platforma yaratilib, mahsulot katalogi, moliyalashtirish bazasi, maslahat xizmati shakllantirilsa, turgan gapki, kichik biznesning "yashil" texnologiyani qabul qilish tezligi oshadi. Masalan, Yevropadagi Enterprise Europe Network kichik korxonalarni "yashil" innovatsiyalar bilan

bog'lash uchun ishlaydi. Markaziy Osiyo uchun ana shunday umumimintaqaviy maslahat tizimi lozim.

Iqlim loyihalari uchun yagona investitsiya portfeli

Forumda yana bir muhim tashabbus — Markaziy Osiyo iqlim loyihalarini tarqoq tashabbuslar emas, yagona strategik investitsiya portfeli tarzida shakllantirish taklif qilindi. Butun mintaqaning barqaror rivojlanishiga oid kichik yoki yirik loyihalar yaxlit hujjatda jamlanadi, ustuvorlik tartibi belgilanadi va xalqaro investorlar, fondlar bilan aynan shu portfel orqali ishlanadi. Maqsad — moliyaviy jozibadorlikni oshirish, xalqaro yordami mintaqaning ustuvor ehtiyojlariga to'liq muvofiqshatirish.

Bugungi tizim shundayki, Qozog'iston, O'zbekiston, Tojikiston har biri o'zi uchun iqlim loyihasini tayyorlaydi. Xalqaro moliya institutlari har bir mamlakat bilan alohida muzokara o'tkazadi. Har bir muzokara o'z hujjatlarini, o'z tizimini, o'z vaqt jadvalini talab qiladi. Natijada loyihalar kechikadi, mablag' kamroq ajratiladi.

Muammoning yana bir tomoni — loyihalar orasida ustuvor tartib yo'qligi. Ba'zi mamlakatlar bir vaqtning o'zida o'n yoki undan ortiq iqlim loyihasini moliyalashtirish uchun muayyan xalqaro manbaga murojaat qilayotgan bo'ladi. Ammo ushbu loyihalarining bir qismi chala ishlab chiqilgan, boshqasida aniq audit mexanizmi yo'q, ichkinchisida ijro jadvali ko'rsatilmagan. Xalqaro investor nima ko'radi? Tizimsiz, tasdiqlanmagan, formatlari muvofiqshatirilmagan loyihalar to'plami. Bunday yondashuv bilan moliyaviy yordam olish qiyin.

Bunda aynan yagona investitsiya portfeli muammoning tizimli yechimi bo'la oladi. U, avvalo, yagona baholash mezonini belgilab, qaysi loyiha ustuvor, nima uchun, qanday mezon asosida kabi savollarga javob beradi. Investor bilan "besh mamlakat bir portfel" sifatida murojaat qilish samaraliroq. Zero, moliya bozorida umumiy qoida bor. Yirik va shaffof biznes kichik va tarqoq biznesdan arzonroq kredit oladi. Mintaqa uchun ham shu mantiq ishlaydi.

Orol tarix emas, davom etayotgan hodisa

Orol dengizi qurishi jahon tarixidagi eng katta ekologik falokatlardan biri sifatida hatto maktab darsliklariga kirib ulguragan. Ammo darslik misoli odatda o'mishni tasvirlaydi. Falokat 1960-1970-yillarda boshlangan, ammo u hali tugamagan, uning oqibatlari bugun ham davom etyapti va ayrim jihatlardan kuchayyapti.

Dengiz o'rmiida paydo bo'lgan cho'l har yili millionlab tonnagacha tuz, chang va zaharli moddalarni atmosferaga ko'taradi. Bu chang sovet davrida sug'orish deltasiga singib ketgan pestitsid va kimyoviy moddalar bilan to'yingan. U shamol bilan 500-600 kilometr masofaga tarqaladi va O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmanistonni qamrab oladi.

OQXJ ta'ischi davlatlari rahbarlarining Ostonada o'tkazilgan majlisida ushbu reallik tan olindi. Jamg'arma 1993-yilda, Orol inqirozi avj pallasida ta'is etilgan va u Markaziy Osiyodagi eng uzoq yashagan mintaqaviy ekologik tuzilma. 30-yildan ortiq vaqt ichida OQXJ doirasida 34 ta suv tejash infratuzilmasi, Orol atrofida o'rmon ekish, yerni tiklash kabi mintaqaviy loyihalar ishlab chiqilgan.

So'nggi yillarda O'zbekistonda irrigatsiya tizimini modernizatsiyalash bo'yicha qilingan ishlar aniq natija bera boshladi. Hozir irrigatsiyadagi samaradorlik oshishi orqali yiliga 10 milliard kub metr dan ortiq suv tejalayotgani aytiladi. 2030-yilga borib bu ko'rsatkich 15 milliard kub metrni tashkil etishi mo'ljallangan.

Kelasi yildan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi raisligi O'zbekistonga o'tadi. Bu raislikni ko'p narsa sifatida ko'rish mumkin — diplomatik yutuq, mintaqaviy nufuz ko'rsatkichi, yana bir rasmiy maqom. Ammo pragmatik jihatdan u, avvalo, mas'uliyat ekani O'zbekiston rahbari tomonidan alohida ta'kidlanadi.

"Kelajak suvi"

Majlisda suvga ehtiyotkor munosabat madaniyatini tiklash uchun "Kelajak suvi" dasturini rivojlantirish aytiladi. Bu iboraning ortida aslida jiddiy g'oya bor. Markaziy Osiyo xalqlari tarixan suvni asrab-avaylashni juda yaxshi bilgan. Xorazm sug'orish tizimi, Farg'ona vodiysidagi suv ulashish an'analari, Samarqand ariqlari — bularning hammasi mintaqada suv menejmentining asriy tajribasini ko'rsatadi. Sovet davrining "ko'p suv — ko'p paxta" siyosati ushbu madaniyatni buzd, suv davlatniki, tejash bfoyda deb hisoblandi.

"Kelajak suvi" dasturi maktablarda suv tejash haqida aniq bilim berish, mahalliy va qishloq suv tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash, jamoa darajasida suv auditi o'tkazish kabilarini nazarda tutadi. Bu choralar texnik yechimlardan ko'ra kamroq "zararli" ko'rinadi. Ammo ijtimoiy norma o'zgarsa, odamlar suvni tejashni shaxsiy mas'uliyat deb his etasa, texnik tizimlar ham ko'proq samara beradi. Madaniy va texnik yondashuv bir-birini kuchaytiradi.

Yoshlar, ta'lim va kelajakka nioh

Ostonada 2027-yilda O'zbekistonda Jahon yoshlar iqlim forumini o'tkazish taklifi berildi. Shu o'rinda yana bir masala — umumta'lim maktablarida iqlim va barqaror rivojlanish mavzularini o'quv rejasiga kiritilishi ham kun tartibiga chiqadi.

Ostona tashabbuslarini amalga oshirish, "yashil" texnologiyalarni joriy etish, irrigatsiyani boshqarish, cho'llanishga qarshi kurashish, "yashil" biznes tuzish uchun zarur bo'lgan avlod hozir maktabda o'qiyapti. Ushbu bolalar 2035-2040-yillarda muhandis, agronom, moliyachi, siyosatchi bo'lib yeshadi. Ularning iqlim savodxonligi, ekologiya haqida aniq bilim, barqaror rivojlanish haqida tanqidiy fikrlash qobiliyati bugun berilayotgan ta'lim orqali shakllanadi.

Finlyandiya 2000-yillar boshida "barqaror rivojlanish"ni maktab o'quv rejasiga integratsiya qildi. Nafaqat alohida fan sifatida, balki har bir fan ichida tafakkur metodi sifatida. Janubiy Koreya ham shu yo'lni tutdi. Natijada ushbu mamlakatlarda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayoni boshqa mamlakatlardagidan ancha osanroq kechdi. Chunki yoshlar o'sha tilni, o'sha mantiqni va o'sha mezonni maktabdan bilib chiqqan. Markaziy Osiyo uchun bu tajriba ta'lim vazirliklari kun tartibiga kirishi lozim bo'lgan masala.

Hisob-kitob vaqti

O'zbekiston Prezidentining Samarqandda aytilgan fikriga qaytaylik. Tabiatni avlodlardan qarzga olyapmiz. Qarzdor bo'lish ayb emas, agar qarz tan olinsa. Ostonada ko'tarilgan "Toza havo" konsorsiumi, Cho'llanishga qarshi markazga mintaqaviy maqom berish, "Yashil savdo yo'lgi" va yagona investitsiya portfeli kabi tashabbuslar ana shu qarzni tan olishning tizimli ifodasidir. Undan tashqari, OQXJ islohotlari, "Kelajak suvi" dasturi — barchasi birgalikda Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishiga real yondashayotganini ko'rsatadi.

Muz kutmaydi. Tuproq kutmaydi. Orol atrofidagi aholi ham kutmaydi. Agar O'zbekiston rahbari tashabbuslariga jiddiy yondashilsa, ular nafaqat Markaziy Osiyo, balki o'shaxsh iqtisodiy va ekologik vaziyatdagi boshqa mintaqalar uchun ham o'rnak bo'lishi mumkin. Chunki suv, havo va yer chegarasi bilmaydi va har birimizdan bir kun hisob so'raydi.



Sharh

www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news

z.uz_news

GLOBAL LOGISTIKA ZANJIRI

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti shiddat bilan o'zgarayotgan, davlatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik chuqurlashib borayotgan murakkab bosqichga kirdi. Globallasuv jarayonlari natijasida tovarlar, kapital, xizmatlar va texnologiyalar harakati keskin jadallashdi. Bu esa har bir davlatdan nafaqat ichki barqarorlikni ta'minlash, balki global raqobat muhitida o'z o'rnini mustahkamlashni ham talab etmoqda. Ayniqsa, logistika va transport infratuzilmasi bu jarayonning markaziy bo'g'igina aylanib bormoqda.

Shu nuqtaiy nazardan, temir yo'l tizimi zamonaviy iqtisodiyotning oddiy infratuzilma elementi emas, balki strategik harakatlanuvchi kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Temir yo'llar orqali hududlar o'zaro bog'lanadi, sanoat markazlari va bozorlar o'rtasida barqaror aloqa shakllanadi, tranzit oqimlar kengayadi. Eng muhimi, iqtisodiy jarayonlarda vaqt omili yangi qiymat kasb etadi — masofalar qisqaradi, samaradorlik ortadi.

Markaziy Osiyo hududi bugun global transport raqobatining muhim maydoniga aylangan. Xitoydan Yevropa va Yaqin Sharqqa chiquvchi yo'laklar, Rossiya va Kaspiy mintaqasi orqali o'tadigan yo'nalishlar, shuningdek, janubiy koridorlar o'rtasidagi raqobat kuchaymoqda. Ana shunday sharoitda O'zbekiston geostrategik joylashuvidan samarali foydalanib, tranzit davlat sifatidagi salohiyatini izchil mustahkamlab bormoqda.

So'nggi yillarda mamlakat transport sohasidagi keng ko'lami islohotlar aynan shu maqsadga xizmat qilmoqda. Temir yo'l infratuzilmasi modernizatsiyasi orqali ichki bozorlar integratsiyasi kuchaymoqda, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy farqlar qisqarmoqda.

Toshkent viloyatida Baytqo'rg'on — Parkent temir yo'l liniyasi qurilishi mamlakat transport infratuzilmasini modernizatsiyalash yo'lidagi muhim bosqichlardan biri sifatida baholalanmoqda. 2025-yil yanvar oyida boshlangan ushbu yirik loyiha qisqa muddat ichida yuqori sur'atda amalga oshirilib, bugungi kunda to'liq yakunlanish bosqichiga yetkazildi.

Loyiha doirasida umumiy uzunligi 24 kilometr dan iborat temir yo'l barpo etildi. Shu bilan birga, infratuzilmani mustahkamlash maqsadida Parkent temir yo'l stansiyasi hududida 50 o'rinni zamonaviy vokzal qurilib, foydalanishga tayyor holatga keltirildi. Bu nafaqat yo'lovchilarga qulaylik yaratadi, balki hududning logistika mavqei ham oshiradi.

Bugungi kunga kelib, Baytqo'rg'on — Parkent temir yo'l liniyasining barcha qurilish ishlari to'liq yakunlangani va o'z ekspluatatsiyaga tayyor ekanini rasman qayd etilmoqda.

Ushbu yirik loyiha Parkent tumani va uning atrof hududlari uchun yangi rivojlanish bosqichini boshlab beradi. Temir yo'l orqali transport aloqalari yaxshilanishi hududga investitsiya oqimini oshiradi, kichik va o'rta biznes rivojiga turki beradi hamda yangi ish o'rinlari yaratadi. Shu bilan birga, aholi harakatlanishi oshishi mehnat bozorida faollikni kuchaytiradi.

Parkent tumani so'nggi yillarda turizm salohiyati ortib borayotgan hududlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Yangi temir yo'l liniyasi ushbu jarayonni yanada jadallashiradi. Sayohatchilar uchun qulay transport imkoniyatlari yaratilishi natijasida Parkent nafaqat Toshkent

viloyati, balki butun respublika miqyosidagi muhim sayyohlik maskaniga aylanishi kutilmoqda. Elektrlashtirilgan zamonaviy temir yo'l tizimi ishga tushirilishi transport harakatini tezlashtiribgina qolmay, ekologik jihatdan ham samarali yechimdir. Bu esa barqaror rivojlanish tamoyillariga mos holda hudud infratuzilmasini shakllantirish imkonini beradi. Loyihaning yana bir strategik jihati uning mintaqaviy transport tarmoqlariga ta'siridir. Navoiy — Buxoro ikkinchi liniyasi Toshkent — Buxoro, Toshkent — Xiva va Toshkent — Qo'ng'iro't kabi yirik yo'nalishlarda harakatlanadigan tezayur poyezdlar uchun uzviy bog'lovchi halqa vazifasini bajaradi. Bu

sohasi va ishbilarmonlik muhiti uchun ham muhim omildir. Chunki tezkor transport aloqasi hududlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyani kuchaytiradi, ishchi kuchi harakatlanishi oshiradi va yangi iqtisodiy markazlarni shakllantirishga turki beradi. Loyihaning yana bir strategik jihati uning mintaqaviy transport tarmoqlariga ta'siridir. Navoiy — Buxoro ikkinchi liniyasi Toshkent — Buxoro, Toshkent — Xiva va Toshkent — Qo'ng'iro't kabi yirik yo'nalishlarda harakatlanadigan tezayur poyezdlar uchun uzviy bog'lovchi halqa vazifasini bajaradi. Bu

esa mamlakatning ichki transport arxitekturasini yagona tizim sifatida integratsiyaga qiladi. Bugungi kunda dunyo transport tizimida yuz berayotgan raqobat nafaqat yo'llar va infratuzilmalar sifati bilan, balki harakat tezligi, texnologiya darajasi va xizmat madaniyati bilan ham belgilanmoqda. Shu ma'noda, O'zbekiston temir yo'l tizimiga "Hyundai Rotem" kabi yuqori tezlikda harakatlanuvchi zamonaviy poyezdlar kirib kelishi mamlakat transport siyosatida yangi strategik bosqich boshlanganidan dalolat beradi. Janubiy Koreyaning ilg'or muhandislik maktabida ishlab chiqarilgan va Jaloliddin Manguberdi nomi berilgan ushbu poyezdlar faqat transport vositasi emas, balki milliy logistika tizimini yangi texnologik standartlarga olib chiquvchi strategik vosita hamdir. Ularning Toshkent — Samarqand — Navoiy — Buxoro yo'yilish mamlakatning ichki turizm xaritasini, iqtisodiy harakatlanish tezligini va hududlar o'rtasidagi integratsiyani sezilarli darajada o'zgartiradi.

Eng muhim jihatlardan biri vaqt omilining iqtisodiy kategoriyaga aylanishidir. Avvallari 14 soatni tashkil etgan yo'l vaqtining keskin qisqarishi yo'lovchilar uchun qulaylik bo'lish qatorida iqtisodiy samaradorlik uchun ham katta imkoniyat yaratadi. Chunki tezkor transport tizimi mehnat bozori harakatlanishini oshiradi, biznes aloqalarni jadallashiradi va ichki bozorning birlashuviga xizmat qiladi. Zamonaviy iqtisodiyotda vaqt eng qimmat resurs ekanini

hisobga olsak, bu loyiha amalda iqtisodiy aylanish tezligini oshiruvchi muhim omilga aylanadi.

"Hyundai Rotem" poyezdlarining texnik imkoniyatlari ham ushbu yo'nalishning strategik ahamiyatini kuchaytiradi. 250 kilometr gacha tezlikda harakatlanadigan, 389 o'rinni, 6 tarkibli zamonaviy tarkiblar O'zbekistonning tabiiy va iqlim sharoitiga moslashtirilgan bilan ajralib turadi. 50 darajagacha issiq va 40 darajagacha sovuq sharoitda ham ishonchli faoliyat ko'rsatishi ularning barqaror ekspluatatsiyasini ta'minlaydi. Bu esa mamlakat transport tizimining tashqi texnologik ta'sirlarga bog'liqligini kamaytiradi



va mustaqil ekspluatatsion barqarorlikni mustahkamlaydi.

Mazkur loyiha faqat yo'lovchi tashish tizimini emas, balki butun temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiyalashni talab qiladi. Shu sababli Toshkent — Samarqand — Navoiy — Buxoro — Xiva yo'nalishida harakat xavfsizligini ta'minlash, infratuzilma barqarorligini tekshirish va nazorat tizimlarini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lami ishlar qilinmoqda. Bu jarayonda mahalliy va xorijiy mutaxassislar hamkorligi bilim va texnologiya transferini ta'minlaydi, milliy mutaxassislar salohiyatini oshiradi.

"Hyundai Rotem" poyezdlarining kirib kelishi O'zbekiston mintaqaviy transport markaziga aylantirish strategiyasi bilan ham uzviy bog'liq. Chunki yuqori tezlikdagi temir yo'llar mamlakat ichidagi shaharlarga emas, balki xalqaro sayyohlik va iqtisodiy oqimlarni ham bog'lovchi muhim halqaga aylanadi. Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlarning bir tizimga bog'lanishi esa turizm salohiyatini bir necha barobar oshiradi va mamlakatning xalqaro imjini mustahkamlaydi.

Yana bir strategik jihat raqamli va intellektual transport tizimiga o'tish jarayonidir. Zamonaviy poyezdlar faqat mexanik harakat vositasi emas, balki intellektual boshqaruv tizimlari bilan jihozlangan kompleks platforma hamdir. Bu esa kelajakda temir yo'l tizimini avtomatlashtirish, raqamli monitoring va sun'iy intellekt asosida boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi.



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!

"Hyundai Rotem" poyezdlarining O'zbekistonga kirib kelishi milliy transport tizimining global standartlarga integratsiyasi, iqtisodiy makonning tezlashishi va turizm hamda logistika salohiyatining yangi bosqichga chiqishidir. Bu loyiha mamlakatning transport sohasidagi strategik mustaqilligini mustahkamlab, uni Markaziy Osiyodagi eng zamonaviy transport tizimlaridan biriga aylantirish yo'lida muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi global iqtisodiy tizimda transport koridorlari davlatlar taqdiriga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi strategik omilga aylanib ulguragan. Ayniqsa, Osiyo va Yevropa o'rtasidagi tovarlar harakati, energiya va xomashyo oqimlari uchun eng qisqa va samarali yo'nalishlarni shakllantirish masalasi xalqaro iqtisodiy raqobatning markaziga chiqqan. Ana shu kontekstda "Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston" temir yo'l liniyasi nafaqat infratuzilmaviy tashabbus, balki Yevrosiyosiy geoiqtisodiy makonini qayta shakllantiruvchi strategik platforma sifatida baholalanmoqda.

Loyihaning eng muhim jihati uning geografik emas, balki geoiqtisodiy funksiyasidir. Murakkab tog'li hududlarni kesib o'tuvchi 464,3 kilometr ushbu yo'nalish Sharqiy Osiyo iqtisodiy markazlarini Markaziy Osiyo va Yevropa bozorlari bilan bog'lovchi eng qisqa tranzit halqalaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Bu esa an'anaviy logistika yo'laklariga nisbatan vaqt va xarajatlarni sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi.

Loyihaning texnik tuzilishi strategik qiymatni yanada oshiradi. Uning 47 foizini tashkil etuvchi ko'priklar va tonnalar infratuzilmaning murakkab muhandislik yechimlar asosida qurilayotganini ko'rsatadi. Bu holat faqat transport emas, balki zamonaviy texnologiyalar, qurilish industriyasi va ilmiy muhandislik salohiyatining ham uyg'unlashuvini anglatadi. 41 ta tunnel va 81 ta ko'priklar iborat bu tizim mintaqadagi eng yirik infratuzilmaviy inshootlardan biri bo'lib, u yuqori texnologik qurilish standartlarini shakllantiradi.

Xalqaro hamkorlik ham loyiha strategik mohiyatini belgilaydi. Xitoy, Qirg'iziston va O'zbekiston ishtirokida tashkil etilgan qo'shma konsorsium nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va logistik integratsiyaning yangi modelini yaratadi. Ushbu hamkorlik orqali mintaqada davlatlari o'zaro bog'liq transport tizimini shakllantirib, global

savdo zanjirlarida o'z o'rnini mustahkamlash imkoniga ega bo'ladi.

O'zbekiston tomonining loyihadagi faol ishtiroki esa mamlakatning tranzit salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish strategiyasi bilan bog'liq. Tajribali muhandis va mutaxassislarining tog'li va geologik jihatdan murakkab hududlarda ishlashi milliy kadrlar salohiyatining xalqaro darajada namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, zamonaviy texnika va texnologiyalar jalb etilishi qurilish jarayonini yuqori sifat standartlariga olib chiqmoqda.

Yana bir strategik jihat standartlarning uyg'unlashuvidir. Temir yo'l ikki xil kenglikdagi iz tizimiga asoslangan holda qurilishi orqali turli transport tizimlarini bog'lovchi integratsion platforma yaratiladi. Bu esa kelajakda Osiyo va Yevropa o'rtasida yagona tranzit zanjirini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Iqtisodiy nuqtaiy nazardan ushbu yo'lining ishga tushirilishi yuk tashish hajmi keskin oshishiga xizmat qiladi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, yiliga 12-15 million tonna yuk oqimi shakllanishi mintaqa iqtisodiyotida yangi qiymat zanjirlarini vujudga keltiradi. Eng muhimi, Sharqiy Osiyodan Yevropa va Yaqin Sharq bozorlariga yetkazib berish vaqti 7-8 sutka qisqaradi. Bu global logistikada raqobat ustunligini ta'minlovchi muhim omildir.

"Asr qurilishi" deb nomlanayotgan ushbu loyiha mintaqaviy barqarorlik va integratsiyani mustahkamlashni geosiyosiy vosita vazifasini ham bajaradi. Transport yo'laklari orqali davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy bog'liqlik kuchayadi, bu esa mintaqada tinchlik va hamkorlik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

"Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston" temir yo'l faqat qurilish obyekti emas, balki Yevrosiyosiy iqtisodiy makonini qayta shakllantirayotgan strategik kommunikatsiya tizimidir. Ushbu yo'l orqali O'zbekiston tranzit davlat sifatida o'z o'rnini mustahkamlaydi, global logistika zanjirida muhim halqaga aylanadi. Bu esa mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligi va geoiqtisodiy ta'sirini kuchaytiruvchi asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Sardor TOLLIBOYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Mening mahallam

Surxon vohasida mahallalardagi yoshlarni qo'llab-quvvatlash, muammolarini hal etish, imkoniyat va salohiyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashishga qaratilgan keng ko'lami ishlar davom etmoqda. Davlatimiz rahbarining 2025-yil 14-fevraldagi "Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori kelajak egalarining ishbilarmonlik ko'nikmalarini rivojlantirish, g'oyalarni amaliy loyihalarga aylantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.



YOSHLAR BANDLIGI QUYI BO'G'INNING O'ZIDA HAL ETILADI

Viloyatdagi 3 milliondan ortiq aholining 60 foizini yoshlar tashkil etadi. Vohada o'tgan yilning o'zida jami 785 yoshning tadbirkorlik loyihalari uchun 93,2 milliard so'm miqdorida kredit ajratilib, 1036 ta yangi ish o'rni yaratilgan.

— Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi hamda boshqa qator tashkilotlar bilan hamkorlikda tizimli va maqsadli ishlar qilinmoqda. Jumladan, joriy yilning birinchi choragida ham yoshlar bandligini ta'minlash masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanib, bu borada manzilli va samarali chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Yoshlar bandligini ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida dehqonchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda, — deydi Surxondaryo viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi bo'lim boshlig'i Ikrom Xolov.

Dehqonchilik orqali yoshlar bandligini ta'minlash, ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish va doimiy daromad manbaini

yaratishga xizmat qiluvchi samarali tizim yo'lga qo'yilgan. Viloyatdagi yoshlarga ijara asosida yer ajratilib, ulardan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida tajribali mutaxassislar birlashtirilmoqda. Ular zamonaviy agrotexnologiyalarni qo'llash, hosildorlikni oshirish hamda mahsulotni bozorga chiqarish bo'yicha amaliy ko'mak va maslahatlar bermoqda. Natijada yoshlar nafaqat o'zini o'zi band qilmoqda, balki qishloq xo'jaligi sohasida barqaror daromad manbaini shakllantirib, tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish imkoniga ham ega bo'lmoqda.

Masalan, Termiz tumanida yoshlar bilan manzilli ishlar orqali ularning qiziqishi va qobiliyatlarini o'rganilib, mos yo'nalishlarda bandligini ta'minlash choralari ko'rilmoqda. Bu esa nafaqat ishsizlik darajasini kamaytirish, balki yoshlarning jamiyatda o'z o'rnini topishi, faol va tashabbuskor bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

— Bu borada mahallalardagi yoshlar yetakchilarining o'rni alohida. Ular mahalla



darajasida yoshlar bandligi bilan to'g'ridan to'g'ri ish olib boruvchi, ularning muammo va ehtiyojlarini chuqur o'rganuvchi muhim bo'g'in hisoblanadi. Har bir yoshning qiziqishi, qobiliyati va imkoniyatlari aniqlanib, ularni to'g'ri yo'nalishga aylantirish ta'minlanib, tadbirkorlikka jalb etilishi hamda bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha manzilli ishlanmoqda, — deydi Yoshlar ishlari agentligi Termiz tumani bo'limi boshlig'i Bobur Mirsaidov.

Termiz tumanining Nurli diyor mahallasida aholining yerdan samarali foydalanishi bo'yicha o'ziga xos tajriba maktabi shakllangan. Shu bois, dehqonchilik orqali mo'may daromad topayotgan fuqarolar soni tobora ortib bormoqda. Mahalla yoshlari ham davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlardan umimiy foydalanib kelyapti. Jumladan, Botir Maqsadovga "Ochiq maydonda dehqonchilik qilish" loyihasi doirasida 30 sotix yer maydoni ajratib berilgan. Hozirgi kunda u mazkur yer maydonida kartoshka yetishtirib, barqaror daromad manbaiga ega bo'lmoqda.

Nurli diyor mahallasidagi Mehriniso Shaymardonqulovaga ham 30 sotix yer ajratib berilgan edi. Uning 15 sotix qismida yosh tadbirkor zamonaviy talabarga javob beradigan yengil konstruksiyali issiqxona qurdi. Hozir issiqxonaga 6000 tup pomidor ko'chati ekip, turmush o'trog'i bilan agrotexnik talablar asosida parvarishlayapti. Intensiv usulda mahsulot yetishtirish hisobiga 200 million so'm daromad olishni ko'zlamoqda.

Tumanning At-Termiziy mahallasida istiqomat qilib kelayotgan Behro'z Ahmedov "E-auktion" platformasi orqali 30 yilga 50 sotix yer olgandi. Endi gulqaram va piyoz ekip yaxshigina daromad topmoqda.

Hozir yoshlarni kasb-hunarga o'qitish ham aniq reja asosida tashkil etilyapti. Xususan, Termiz tumanidagi ishsiz 60 nafar yigit-qiz Surxondaryo ilg'or kasbiy mahorat texnikumida pavyandlash, tikuvchilik va qandolatchilik kabi kurslarda o'qitilyapti.

Berilayotgan ixtiyozli kreditlar yoshlarning ishbilarmonlik qobiliyatini ro'yobga chiqarish, tadbirkorlik faoliyatlarini boshlashlarida yaxshi samara beryapti. Ayniqsa, "Ko'mak" loyihasi doirasida Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jamg'armasidan berilayotgan kreditlar bilan qator yangi loyihalar amalga oshirilyapti.

Anvar Choriyev Termiz tumanidagi tadbirkor yoshlardan biri. U o'quv markazi ochdi. Tuman mahallalari va ta'lim muassasalaridan 70 dan ziyod yosh shu o'quv markazida xorijiy tillardan saboq olmoqda. Xulosa o'rinda aytilish mumkin, yurtimizda yoshlar bilan ishlash borasida dunyoda o'xshashi kam bo'lgan vertikal boshqaruv tizimi yaratildi. Xususan, mahallalardagi yoshlar yetakchilari orqali yoshlarni kasb-hunarga o'qitish, bandligini ta'minlash, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq ko'plab masalalar quy bo'g'inning o'zida hal etilyapti. Yaratilgan imkoniyatlarining maqsad-muddasini ham shu — kelajak avlodga e'tibor. Zero, yoshlar mamlakatning kelajagi, strategik kuchi hamdir.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news



TA'LIM



Sharh

AUDITORIYA BILAN CHEGARALANMASLIGI, ILMYI ISHLANMALAR

QIYMATGA AYLANISHI KERAK



Abduvali XOLIQOV, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi direktori, kimyo fanlari doktori, professor

Zamonning talabi shunday

Bugun oddiy ishlohtlar davri emas. Aksincha, eskicha qarashlaru yondashuvlar tubdan qayta ko'rib chiqilayotgan, jamiyat tafakkuri yangilanayotgan, davlat va jamiyat hayotining barcha sohosi chuqur transformatsiya qilinayotgan tarixiy bosqich. Prezidentimizning 2026-yil 10-apreldagi "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini rivojlantirishda mutlaqo yangi sahifani ochib berdi.

Mohiyatiga ko'ra, farmon mamlakatimizning intellektual salohiyatini shakllantirishga qaratilgan strategik "yo'l xaritasi". Uni sinchiklab o'rganar ekanimiz, faqat alohida chora-tadbirlar emas, balki yaxlit tizimli yondashuv, aniq maqsad va chuqur o'ylangan istiqbol mujassam ekanini ko'ramiz. Hujjatda ifodalangan g'oya oddiy emas, bilim, ilimga va innovatsiyaga tayangan taraqqiyot falsafasidir. Bugun dunyoda raqobat kuchayib borayotgan bir paytda bilim va intellekt asosiy ustunlik omiliga aylangan. Shunday sharoitda mazkur farmon orqali ilgari surilayotgan yondashuv mamlakatimizni aynan ilm-fan va innovatsiyalar orqali global taraqqiyot pogasidagi munosib o'rin egallashga olib chiqadigan qat'iy siyosiy irodaning ifodasi. Yana bir jihati, bu hujjat faqat ishtirokni emas, mas'uliyatni ham talab qiladi.

"5T" — taraqqiyotning yangi formulasi

Hozirgi globallashuv va keskin raqobat sharoitida oddiy yondashuvlar bilan natijaga erishib bo'lmaydi. Zamonaviy taraqqiyot murakkab, tizimli va chuqur o'ylangan yondashuvni talab qiladi. Shu ma'noda, farmonda ilgari surilgan "5T" tamoyili yangi davrning aniq amaliy formulasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu tamoyil mohiyatiga e'tibor bersak, u oliy ta'lim tizimiga mutlaqo yangicha mazmun yuklaydi. Endi o'qitish jarayoni faqat auditoriya bilan chegaralanmaydi, tarbiya esa faqat ma'naviy tushuncha doirasida qolmaydi. Tadqiqotlar qo'zg'ozlarda emas, real natijalarda aks etishi, ilmiy ishlanmalar esa iqtisodiy qiymatga aylanishi zarur. Shu bois, bugun oliy ta'lim muassasalariga nisbatan talab ham keskin o'zgarib bormoqda. Ular endi bilim beruvchi maskan emas, balki yangi g'oyalarni tug'iladigan ilmiy makon, innovatsiyalar shakllanadigan markaz, iqtisodiy rivojlanishni harakatga keltiradigan kuchga aylanishi shart.

Raqobat, sifat va adolati baholash

Zamonaviy taraqqiyotning eng muhim talabi adolati baholash va sog'lom raqobat muhitidir. Qayerda adolati mezon ustuvor bo'lsa, aynan o'sha yerda sifat shakllanadi,



rivojlanish jadallashadi, tashabbuslar qo'llab-quvvatlanadi. Farmonda nazarda tutilgan milliy reyting tizimining joriy etilishi oliy ta'limni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadigan muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu tizim har bir oliy ta'lim muassasasining haqiqiy salohiyati, natijasi va jamiyatga qo'shayotgan hissasini ochiq va shaffof mezonlar asosida aniqlashga xizmat qiladi. Eng muhimi, bu orqali tizimda yillar davomida shakllanib qolgan sun'iy ko'rsatkichlar, rasmiyatchilik va formal yondashuvlar barham beriladi. Mezon aniq: natija ishlama — baho, sifat bo'lmasa — rag'bat bo'lmaydi. Bu oddiy ibora emas, yangi boshqaruv falsafasi. Shu orqali oliy ta'lim muassasalarida faoliyatida sifat ustuvor mezoniga aylanadi. Endi faqat hisobotlar emas, haqiqiy natijalar baholanaadi. Son emas, mazmun muhim bo'ladi. Jarayon emas, samara hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv tabiiy ravishda sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi. Raqobat bor joyda sushtashlikka o'r'in yo'q, befarqlikka imkon yo'q. "Qanday bo'lsa, shunday" ishlashga esa mutlaqo o'r'in qolmaydi. Albatta, bu tizim har bir oliy ta'lim muassasasi, har bir rahbar va har bir pedagog oldiga jiddiy talablar qo'yadi. Endi har bir natija asoslanishi, har bir ko'rsatkich isbotlanishi, har bir faoliyat samara berishi shart. Eng muhimi, bu tizim adolati tiklaydi. Chunki haqiqiy mehnat, haqiqiy natija va haqiqiy sifat bahosini oladi. Bu esa tizimda ishonchni mustahkamlaydi, motivatsiyani oshiradi va eng ilg'or tajribalarni yuzaga chiqaradi.

Ilm-fan — iqtisodiyot taraqqiyotining muhim omili

Taraqqiyot mezonlari tubdan o'zgarayotgan zamonada ilm-fanning haqiqiy qiymati nazariy yangiligiga emas, balki amaliy natijasida namoyon bo'ladi. Qaysi mamlakat ilmini iqtisodiyot bilan uyg'unlashtira olsa, aynan o'sha mamlakat barqaror taraqqiyotga erishadi. Shu ma'noda, farmonda ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish belgilab qo'yilgani bejiz emas. Mazkur yondashuvning tub mohiyati shundan iboratki, ilmiy faoliyat endi yopiq tizimda emas, balki ochiq, raqobatbardosh va natijaga yo'naltirilgan muhitda olib boriladi. Grantlar, tanlovlar, xalqaro ekspertiza — bularning barchasi ilmiy g'oyalarni saralash, qo'llab-quvvatlash va eng istiqbolli yo'nalishlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, farmon ilm-fanga nisbatan mutlaqo yangi talab qo'yadi: ilmiy g'oya, albatta, amaliy natijaga, innovatsiyaga va iqtisodiy samaraga aylanishi shart. Bu talab emas, davmning qat'iy hukmi.

Endi mezonlar o'zgarimoqda. Ilmning iqtisodiy qiymati muhim, nazariya emas, uning amaliy tabiiq hal qiluvchi ahamiyatiga ega. Bu esa ilm-fanni hisobot uchun bajariladigan faoliyatdan haqiqiy rivojlanish drayveriga aylantiradi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv yosh olimlar uchun ham yangi uqqlarni ochadi. Endi tashabbuskorlik, innovatsion fikrlash va amaliy natijaga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ilm-fan bilan shug'ullanish nafaqat ilmiy daraja olish, balki real muammolarni hal qilish, jamiyatga xizmat qilish demakdir. Agar ilm-fanni iqtisodiyot bilan uyg'unlashtira olsak, u mamlakatimizning eng katta boyligiga aylanadi. Ilm-fan endi tanlov emas, zarurat.

U iqtisodiyotga xizmat qilishi, natija berishi, kelajakni yaratishi shart. Ana shundaygina ilm-fan haqiqiy kuchga aylanadi.

Global maydonga chiqish — zarurat

Bugungi dunyo yopiq tizimlarni qabul qilmaydi. Ilm-fan ham, ta'lim ham endi milliy chegaralar bilan cheklanib qoladigan soha emas. Global bilimlar oqimi, xalqaro ilmiy hamkorlik va akademik mobillik — bular zamonaviy taraqqiyotning ajralmas shartiga aylangan. Shu ma'noda, farmonda oliy ta'lim tizimini xalqaro maydonga olib chiqish ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yilgani chuqur strategik qarordir. Mazkur yondashuvning mohiyati oddiy: agar biz global ilmiy va ta'lim makonida faol ishtirok etmasak, taraqqiyot sur'atidan ortda qolamiz. Chunki bilim yopiq muhitda emas, ochiq, hamkorlikka asoslangan tizimda rivojlanadi. "Study in Uzbekistan" platformasining kengaytirilishi, xorijiy talabalar oqimini oshirish, nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalarini bilan hamkorlikni chuqurlashtirish — bularning barchasi mamlakatimizni mintaqaviy va xalqaro ta'lim markaziga aylantirishga qaratilgan aniq va izchil qadamlardir. Bu orqali nafaqat ta'lim sifati oshadi, balki ilmiy maktablar

Yuksalish pallasini



BESH MILLION SUN'IY INTELEKT YETAKCHILARI KELAJAK KASBLARI LIDERLARINI KASHF ETAYOTGAN DASTUR

Sun'iy intellekt hayotimizga tobora yaqinlashib kelar ekan, undan foydalanish oddiy holga aylanib boraveradi. Shu ma'noda, yurtimizda bu boradagi ishlarga katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Yaqinda Prezidentimiz sun'iy intellekt va raqamlashtirish yo'nalishidagi ishlohtlar hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan taqdimot bilan tanishish chog'ida ham bunga alohida to'xtaldi.

"Bir million o'zbek dasturchilari" loyihasining mantiqiy davomi o'laroq "Besh million sun'iy intellekt yetakchilari" dasturi yo'lga qo'yilishi yoshlarning ushbu yo'nalishdagi imkoniyatini yanada kengaytirdi. Chunonchi, 2023-2025-yillar davomida "Bir million o'zbek dasturchilari" loyihasida 1 milliondan ortiq yosh Coursera platformasida tahsil olib, xalqaro sertifikatlariga ega bo'ldi. 15 mingdan ortiq professional darajadagi sertifikatlarni qo'lga kiritdi, 30 ming yosh esa xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassisga aylandi. Bunday natijalar O'zbekistonning global miqyosdagi nufuzini sezilarli darajada oshirdi. Global Skills hisobotiga ko'ra, mamlakatimiz ta'limga eng ko'p investitsiya kiritayotgan davlat sifatida 1-o'rinni egallab, Coursera platformasida foydalanuvchilar soni bo'yicha Markaziy Osiyoda yetakchiga aylandi.

Yurtimizda soha jadal rivojlanayotganini AT xizmatlarimiz eksperti 1 milliard AQSH dollariga yetgani, dasturchilarimiz soni 10 barobardan, GitHubdagi dasturchilarimiz 300 mingdan oshganida ham yaqqol bilinadi.

Yoshlarimizni sun'iy intellekt borasida yetakchiga aylantirish uchun alohida e'tibor va katta mablag' yo'naltirildi. 2030-yilgacha axborot texnologiyalari xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish, millionlab yoshlar uchun yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratishni maqsad qilganimiz. Prezidentimiz 2025-yil 28-noyabr kuni poytaxtimizda o'tkazilgan sun'iy intellekt bo'yicha xalqaro forumda ham, Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida ham qator tashabbuslarni ilgari surgan edi. Shunday noyob loyihalardan biri "Besh million sun'iy intellekt yetakchilari"dir. Dastur doirasida 2030-yilgacha 4 million 750 ming o'quvchi va talaba, 150 ming o'qituvchi, 100 ming nafar davlat xizmatchisini o'qitish ko'zda tutilgan. Aholi va yoshlarning sun'iy intellekt bo'yicha bilim va ko'nikmalarini mustamz oshirish uchun aileaders.uz platformasi ishga tushirildi. Dastur doirasida milliy tanlov o'tkazish, unda qator yo'nalishlar bo'yicha o'qituvchilar, o'quvchilar hamda ta'lim tashkilotlarini rag'batlantirish belgilangan edi. Shunga ko'ra o'tkazilgan ilk tanlov kelgusida iqtisodiyotimiz drayveriga aylinishi, jadal taraqqiyotimizga xizmat qilishi kutilayotgan loyihaning dastlabki natijalarini ko'rsatdi. "Besh million sun'iy intellekt yetakchilari" loyihasi doirasida tashkil etilgan milliy tanlov g'oliblari munosib rag'batlantirildi.

Informatika o'qituvchilari o'zaro raqobatga kirishdi

650 mingga yaqin ishtirokchini qamrab olgan milliy tanlovda "Eng faol informatika fani o'qituvchisi" yo'nalishida 107 g'olib aniqlandi. Ularning 97 nafariga 1000 dollar miqdorida bir martalik pul mukofoti, 10 nafariga esa xorijga safar yo'llanmasi topshirildi. Bu, albatta, informatika fani o'qituvchilarining do'stona raqobat muhitida ishlashi, o'z kasbiga mehri yanada oshishiga xizmat qiladi.

1992-yildan buyon Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumanidagi 7-umumta'lim maktabida informatikadan dars berib kelayotgan Akbarali Yusupov ham xorijga sayohat yo'llanmasini oldi. Quvonarlisi, katta yoshli ustoz yoshlar qatori zamonaviy bilimlarni egallab, o'quvchilarga ulasha o'lapti.

— Birinchi qadrg'ochlarim — 15 o'quvchim sabab katta yuqoriga erishib turibman, — deydi u. — Shu paytgacha bunday imkoniyat bo'lmagan, qiyinchilik bilan dars o'tib keldik. Maktabda kompyuter yo'q, lekin mavzuni tushuntirishimiz kerak bo'lganida kompyuterni tasavvur qilib, dars o'tgan vaqtimiz bo'ldi. 2020-yilda maktabimizga zamonaviy kompyuterlar berildi. Tanlovga o'quvchilarni shular yordamida tayyorladim. O'quvchilarning noutbuk, o'zimga esa xorijga sayohat yo'llanmasi nasib qilindi. Poytaxtga otanganimizda maktabdagi hamkasblarim ham havas qilib qoldi. Butun respublikamizdagi informatika o'qituvchilarini harakatga keltiradi bu tanlov. Hozir o'quvchilarim soni ortib, ikki guruhda mashg'ulot o'tkazaymiz. Nasib qilsa, keyingi gal yutuqlarimiz ham shunga yarasha bo'ladi.

Oddiy maktabga qachon avtomashina berilgan?

Tanlovning bosh sovrini, Prezident sovg'asi — elektromobil Xorazm viloyati Bog'ot tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab hamda Navoiy viloyati Zarafshon shahridagi 13-umumta'lim maktabiga nasib etdi.



"Bizga sun'iy intellekt bo'yicha milliy tanlovda ishtirok etishimiz, o'quvchilarimiz sun'iy intellekt yetakchisi bo'lishi uchun hududiy hokimliklari, boshqarmalar tomonidan kerakli sharoitlar yaratib berildi, — dedi 13-umumta'lim maktabi direktori Zirola Hotamova. — O'n yil avval bittagina kompyuter xonamiz bor edi. Bugun esa maktabimiz hamma qulayliklarga ega. To'rtta kompyuter sinfimiz zamonaviy jihozlangan, internet tarmog'iga ulangan.

Viloyatimiz bo'yicha tanlovga 50 mingga yaqin o'quvchi ro'yxatdan o'tgandi. Shundan 1800 nafariga yaqini bizing o'quvchilariimiz. Alohida ta'kidlashni istardimki, bu boradagi yutuqlarimizda qizlarning ulushi ko'proq bo'lyapti. Chunki bugun qizlarimiz ham astoydil qiziqyapti sohaga. Hatto o'zimizda ham qiziqish ortib, Coursera tizimida o'qidim, ikki marta sertifikat oldim. Taqdirlash tabiiy biz uchun juda hayajonli kechdi. Avtomobil olamiz deb o'ylamagandik. O'zingiz o'ylang, axir oddiy maktabga qachon avtomobil berilgan? Bu hurmat va e'tiborga javoban bundan keyin ham kelajak bunyodkorlarining sun'iy intellekt bo'yicha bilimlarini oshirishga jamoamiz bilan shiddatli xizmat qilamiz. 12 nafar informatika o'qituvchimizga bu bo'yicha ishlarni taqsimlab berganimiz. Sakkit nafari aynan sun'iy intellekt bilan ishlaydi. Nasib qilsa, o'quvchilarimiz orasidan ko'plab kelajak kasblari egalari yetishib chiqadi".

Sifatli kadrlar tayyorlash tizimi takomillashadi


Yangi loyiha ortidan oliy ta'lim muassasalari o'rtasida ham raqobat kuchaydi. Bu sifati kadrlar tayyorlash tizimini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

"Eng faol oliy ta'lim muassasasi" nominatsiyasi doirasida Buxoro davlat universiteti 3-o'rin (25 million so'm), Buxoro davlat texnika universiteti 2-o'rin (50 million so'm), Toshkent axborot texnologiyalari universiteti 1-o'rin (100 million so'm)ni qo'lga kiritdi.

— Yoshlarimiz sun'iy intellekt yaratuvchilari bo'lishi kerak degan g'oya asosida taqib etilgan "Besh million sun'iy intellekt yetakchilari" biz uchun dasturlam bo'ldi, — dedi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori Baxtiyor Mahkamov. — Shuningdek, u sanoat, tarmoq, oliygoh zarorini uyg'unlashtiradigan tizimga aylandi. Chunki mehnat bozoriga qanaqa kadrlar kerak, kelajak kasblari qanday bo'ladi, ularga qay tarzda o'qitish lozim kabi savollarimizga aynan shu dastur orqali chekin topildi. Qisqa vaqt ichida universitetimiz tomonidan 60 dan ortiq startap loyiha yaratildi. Shulardan 7 milliard so'm qiymatidagi startap loyihalari vechur fondlarga taqdim etildi. Ular bizni ham moddiy, ham texnik bazamizni yaxshilashga, o'z ustimizda yanada ko'proq ishlashga undayapti.

O'zbekiston raqamli transformatsiya yo'lida qat'iy qadam tashlayotir. Innovatsiya, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan hamnafas bo'lishga intilayotgan mamlakatimiz dunyoviy miqyosda e'tirof etilyapti. Bu borada "Bir million o'zbek dasturchilari", "Besh million sun'iy intellekt yetakchilari" kabi ko'p tomonlama manfaatli dasturlar qaysidagi ma'noda o'zini oqlayotgan ekan, ular sonini yanada kengaytirishimiz, qo'llab-quvvatlashimiz kerak.

Munojat MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri





Obod yurt manzaralari

Ma'rifatli jamiyatni ma'rifatli onalarsiz qurish qiyin. Onalari savodxon, bilimdon avlodning bolalari zukko va ilmu tafakkurli bo'ladi. Qonimizda buxoriylar, xorazmiylar, beruniylar qoni bor. Kechagina shaxmatdagi g'alabasi bilan dunyo e'tiborini O'zbekistonga qaratgan Javohirning onasiga butun mamlakatimiz onalarining havasi kelayotgani ro'st.



yotganida "meni birov eslamasa kerak", der edi.

Davlatimiz rahbarining e'tibori uning oilasiga qadar yetib borib, o'tgan yili dastlab "Ayollar daftari"ga kiritildi va bepul davolandi, qaddini tikladi. E'tibor va g'amxo'rlikka munosib javob berish uchun reja qila boshladi. Mahalla xotin-qizlar faoli hamda hokim yordamchisining ko'magi bilan subsidiya asosida tikuv mashinasi oldi. Bugun uning xonadoni kichik sexga aylangan. Ayol bir daqiq ham tinim bilmaydi. Tikuvchilik qiladi, matoga zeb beradi, sumkalarni bezab, kelinlar sarposi uchun sovg'alarga tayyorlaydi. Ijtimoiy tarmoqdagi sahifasi orqali buyurtma oladi, sotuvni yo'lga qo'ygan. Atrofida shogirdlari, farzandlari parvona.



Sayyora TO'YCHIYEVA, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori, falsafa fanlari doktori

Qadimiy madaniyat hamda sivilizatsiya beshiklaridan biri Qashqadaryo zaminidagi tog' va daryolar, obod shahar va qishloqlar, kundan kun chiroy ochayotgan fayzli maskanlarni ko'rib, ko'zingiz yayraydi. Abu Turob Naxshabiy, Najmiddin Nasafiy, Sayido Nasafiy, Abu Muhammad Keshiy kabi mutafakkirlar nomini voha odamlari faxr bilan eslashadi.

El dardiga darmon bo'lmoq buyuk va savobli vazifadir degan g'oyani hayotiy dasturi qilib olgan Sohobqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligi munosabati bilan o'tayotgan tadbirlarda dunyoga shunday shijoatli insonni bergan zamanga havasingiz keladi.

Yurtimizning qay go'shasiga bormang, O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripovning "Men nechun sevaman O'zbekistonini?" satrlari tilimizga kelaveradi.

Ma'rifatli ayollar gurungi

Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tavsiyasiga ko'ra, yangi O'zbekiston islohotlarining oldingi safarida borayotgan opa-singillarimiz bilan diydorlashmoq uchun Qashqadaryo sari yo'ldiki.

Qarshi shahridagi madaniyat saroyida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirida so'zga chiqqan viloyat "Buvijonlar maktabi" yetakchisi Kommuna Isoilova bunday deydi:

"Yangi O'zbekistonda insonni qadrlash onalarni, ayollarni ulug'lashdan boshlanadi. Ayolning oilasi tinch bo'lsa, ko'ngli xotirjam, uyi obod bo'ladi. Ko'p yillik tajribaga ega opajonlarimiz bilan mahallama mahalla, uy-ma'ya yurib, vohamizda ko'p uchraydigan odatlar — qarindosh-urug'lar



ADOLATLI VA SHIDDATLI ISLOHOTLAR

HAR BIR AYOLNING YURAGI ORQALI O'TADI

o'rtasidagi nikohlar, maktab yoshidan qizlarni qarindoshlariga atab "beshikketti" qilib qo'yish, erta tug'uruqlar borasida tushuntirish berib boryapmiz. Baraka topsin, kelinlar ham, qaynonalar ham to'g'ri tushunyapti.

Ta'lim-tarbiya uyg'unligi — bolalarimiz kelajagi kafolati. Nimani eksang, shuni o'rsan degani bolangga bergan ta'lim-tarbiyang qariganingda ko'zgu bo'lib, senga aksingni ko'rsatadi, degandir".

O'zbekiston Qahramoni Muhabbat Sharopovning dil izhorlari haqiqiy murabbiyning, dono muallimning hikmatlariga o'xshaydi.

"Umrimg bo'yi xalqning bolasini o'qitdim, ta'lim berdim. Muallimlik noni bilan bolalarimni boqdim.

Ta'lim sifatini oshirish yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir deb ta'kidlaydi davlatimiz rahbari.

Ustoz maqomini oshirish, sha'ni va qadrimmatini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor vazifasi ekanidan faxrlanib ketaman. Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab, kasblar ichida eng sharafli o'qituvchilikdir. Bolamiz qanday kitob o'qiyapti, qanday kino ko'ryapti, nimaga qiziqishi bor — mana shu masalalar faqat muallimning emas, otananing ham boshini qotirishi lozim.



aytaman, islohotlarning nurli samaralari uchun duodaman".

— Zo'ravonlikka qarshi ma'rifat jamiyat ravnaqi garovidir, — deydi qashqadaryolik senator Komila Karomova. — Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olishga qaratilgan muhim targ'ibot tadbirlarida huquq-tartib idoralari xodimlari

keltirar ekanman, o'zbek milliy maqomi, baxshichilik, milliy raqs, milliy musiqa san'ati, milliy hunarmandchilikka e'tibordan ko'nglim tog'dek o'sadi. Tinch yurtga qo'shiq, bayramu to'y yarashadi, tinchlikka ne yetsin.

Chiroqchi tumanidagi 1-umumta'lim maktabiga bir chochuq kitob bilan kirib borgan Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona direktori Umida Teshaboyeva hamda viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i Ziyoda Aminova o'quvchilarga qiz bolaning bilimi va savodxonligida, oilalar farovonligida kitobning o'mi haqida gapirdi.

El ardoqlagan ziyoli opalarimizning so'zlarini tinglar ekanman, jaded bobomiz Abdurauq Fitratning "Onalar butun bashariyatning tarbiyachilari" degan purhikmat so'zlari yodimga tushdi.

Ko'kdala iftixorlari

Ko'kdala tumanidagi fidoyi onaxonlar, sarishta kelinlar va bilimli qizlar bilan suhbatlarimizdan so'ng tumaning taniqli tadbirkor ayollari hovlisida bo'ldik. Ular qo'l urayotgan yangiliklar, el dasturxoniga tortiq qilayotgan mahsulotlar bilan qiziqdik.

Ko'kdala mahallasida yashovchi Gulzor aya Shaymanova xonadonida uchta issiqxonaga bor. Onaxon turmush o'rtog'i va besh farzandi bilan qirq turdan ortiq gul ko'chati, pomidor, qovoq, tarvuz, bodring, qovun yetishtiradi. U qishloq ayollaridan o'n nafarini ish bilan ta'minlagan. Har yili xotin-qizlar kuni, Ramazon va Qurbon hayitlari arafasida ellikdan ehtiyojmand oilaga gul, pomidor ko'chatlari va hadyalar tarqatadi.

— Yerga yaxshi qarasang, seni boqadi, — deydi Gulzor aya. — Qancha barvaqt dehqonchilikni boshlasam, shuncha ko'p barakali hosil olaman. Bolalarim, nabiralirim qabatimda. Mehnatning halol noni elning duosi bilan totli.

Feruzaxon Xurramova turmush o'rtog'i Xolmurodjon bilan besh farzandni katta qilmoqda. Ko'kdala pillakorlarining yetakchisi Feruzaxon har yili pilla va paxta yetishtirish borasida boshqalarga namuna bo'lyapti. Naymansaroy mahallasi ahli fermerlik nonini yeb, hamisha elu yurtning xizmatiga kamarbasta bu oilani hurmat

bilan tilga oladi. Xonadondagi sarishtalik, tomorqadagi saranjomlikni ko'rib, vohaning eng chekkasidagi Ko'kdala tumanida halol mehnati, tarbiyali farzandlari ortidan eldoshlari tiliga tushayotgan oilalarga havasimiz keldi.

Qayerda shukronalik, halollik bor ekan, u yerda fayzu baraka bo'ladi deb bekorga ayt-magan xalqimiz.

Shahrisabz — hunarmandlar yurti

Qashqadaryo viloyati azaldan usta hunarmandlar, do'ppido'zu kashtachilar, so'zana tikib, matoga qayta umr baxsh etuvchi chevarlar yurti. Shahrisabz "Hunarmand" uyushmasi rahbari, "Mo'tabar ayol" ko'k-rak nishoni sohibi Gulnora Choriyeva arabi gilam, iroqi do'ppi, iroqi uslubidagi yostiqlik jildi, quroq ko'rphachalar singari tikuv, to'quv ishlariga bosh bo'lib, o'zi yashaydigan Uychiilik mahallasida 50 ayolni ish bilan band qilgan. Gulnoraning tavsiyasiga ko'ra, opa-



singillarimiz chevarlik ishlarini uyda bajarib, maosh oladi. Shu yo'l bilan uy-ro'zg'or ishlari, yosh bola tarbiyasiga ham imkon topadi. Uning so'zlarini tinglar ekanmiz, uyda qizlari, kelinlari, qo'shnilar, ovsinlariga hunar o'rgatib, oila byudjetiga hissa qo'shayotgan va mehnatining samarasidan xursand ayollarning qo'li dard ko'rmasin degingiz keladi.

Yana bir usta hunarmand Mahliyo Mannopova bir vaqtning o'zida 750 ayolni band qilgan. Istagi bor xotin-qizlarga dastlab tikuv sirlari o'rgatildi. Keyingi bosqichda yarim tayyor mahsulotlarni uyma-uy yurib tarqatadi. Ko'p mahsulot tayyorlagan hunar egasining daromadi ham shunga yarasha bo'ladi. Ikki yil oldin uyda yarim tayyor mahsulot kelishini kutib turgan ayollar orasida bugun usta hunarmand bo'lgan, yetakchi tadbirkor ayol" ta'birlari shular jumlasidan.

Shahrisabz shahri G'alaba mahallasida istiqomat qiluvchi Lola Muzaffarovani mahalladoshlari "jasorat timsoli", deb ta'riflaydi. Hayot qiyinchiliklari oldida bir bukildi, lekin qaddini tikladi, kuch va matonatni "O'zbekistonda har bir inson e'tiborida" degan g'oyadan topdi. To'shakda

— Mening hayotim katta saboq maktabi. To'shakda yotgan ayol bugun tadbirkor ayol. Bu kabi imkoniyat va imtiyozni yaratib bergan Prezidentimizdan minnatdorman, — deydi Lolaxon.

Mirshikor tumani Chamanzor mahallasida yashovchi Oyimxol Atalikova 2023-yilda "Ayollar daftari"ga — tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan ehtiyojmand xotin-qizlar toifasiga kiritilgan edi. Unga imtiyoz asosida 50 million so'm kredit ajratildi. 10 ta tikuv mashinasi, zarur uskunalarni xarid qilgan chevar ayol va shogirdlari tayyorlagan mahsulotlar bugun xaridorgir. Ular bolalar va ayollar kiyim-kechaklarini tayyorlamoqda, gilamchilikni yo'lga qo'ygan. Muhimi, bir paytlar o'zi ishsiz bo'lgan Oyimxol bugun 150 xotin-qizning bandligini ta'minlayapti.

Mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan viloyatda opa-singillarimiz faolligini oshirish, ularni bandlik va tadbirkorlikka keng jalb etish, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish maqsadida viloyat hokimi sovrini uchun qator tanlovlar tashkil etildi. Uy bekalari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish va ularning

Ma'lumot: "Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriq qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-546. **Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzili: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.